ÖZBEKISTONDA MEDIA ISTE’MOLINI ÖRGANIŞ BÖYIÇA MILLIY TADQIQOT



NAŞR HAQIDA

Özbekistonda mediaiste’mol böyiça milliy tadqiqot

Sotsiologik sörov natijalari böyiça tahliliy hisobot

YETAKÇI TAŞKILOT	Milliy mass-mediani qöllab-quvvatlaş va rivojlantiriş jamoat fondi
MOLIYAVIY KÖMAK	Yevropa Ittifoqining Özbekistondagi Delegatsiyasi va Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uçun kontent tayyorlaş markazi
HAMKOR TAŞKILOT	Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uçun kontent tayyorlaş markazi
DALA TADQIQOTI VA MA’LUMOTLAR TAHLILI	«Ijtimoiy fikr» respublika jamoatçilik fikrini örganiş markazi
SÖROV DAVRI	2026 yil 8–19 sentyabr
TANLOV	18 yoş va undan katta 1411 nafar respondent; Özbekistonning barça 14 mintaqasi; şahar va qişloq joylari
USUL	Yagona standartlaştirilgan savolnoma asosida respondentning yaşaş joyida yuzma-yuz intervyu

Uşbu naşr Yevropa Ittifoqining moliyaviy kömagida tayyorlangan. Uning mazmuni uçun Mass-media fondi javobgar; naşr mazmuni Yevropa Ittifoqining nuqtai nazarini aks ettirişi şart emas.

Toşkent, 2026

Mundarija

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari 6

Sörov haqida umumiy ma'lumot 7

A bölim. Tanlov tarkibi 8

Sözboşi 9

Tadqiqotning qisqaça rezyumesi 11

B bölim. OAV va mediaiste'mol haqidagi umumiy savollar 21

B.1 Mamlakatdagi yangiliklarga fuqarolar qiziqişining muntazamligi 23
B.2 Mamlakatdagi yangiliklar haqidagi axborot manbalari va ulardan foydalaniş sabablari 25
B.3 OAVdagi yangiliklarga fuqarolar qiziqişining mazmunan yönaltirilganligi 31
B.4 OAVda axborot beriş şakli va tili 38
B.5 Mamlakatda OAVning rivojlanişi va uning rolini baholaş 43
B.6 Mamlakatda OAVga bölgan işonç darajasi hamda işonçsiz va yolğon axborotlarga munosabat 45
B.7 OAV faoliyati, muammolari va ularni rivojlantiriş çora-tadbirlarini baholaş 56

C bölim. Televideniye 67

C.1 Televideniyeni tomoşa qiliş muntazamligi va intensivligi 68
C.2 Televizion kontentni tomoşa qiliş usullari va şart-şaroitlari 76
C.3 Auditoriyaning afzalliklari va telekanallarni tanlaş sabablari 79
C.4 Tomoşabinlar qiziqişlarining mazmunan yönaltirilganligi 88
C.5 Televizion kontent rang-barangligini baholaş 91
C.6 Fuqarolarning Özbekiston telekanallariga bölgan işonç darajasi 95
C.7 Televizion kontent muammolarini baholaş 99
C.8 Mamlakatda televideniyeni takomillaştiriş böyiça takliflar 103

D bölim. Radio 108

D.1 Aholi orasida radio eşitişning tarqalganligi 109
D.2 . Radiodasturlarni tinglaş tiğizligi, davomiyligi va vaqti 110
D.3 Radio tinglaş joyi, usullari va şaroitlari 117
D.4 Aholining Özbekiston radiostansiyalarini tanlaşdagi afzalliklari 122
D.5 Radiostansiyalarni tanlaşning asosiy sabablari va ularning mazmuniga bölgan afzalliklar 125

E bölim. Bosma va onlayn-matbuot 130

E.1 Bosma va onlayn-matbuot öqişning tarqalganligi 131

F bölim. Ijtimoiy tarmoqlar 166

G bölim. Telegram 194

G.1 Telegramdan foydalanişning ommalaşganligi va intensivligi 195
G.2 Telegramdan foydalaniş maqsadlari va xususiyatlari 197
G.3 Telegramdan foydalanişdagi muammolar 214

Tadqiqot xulosalari 220

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi: Özbekistonda mediaiste'mol xususiyatlarini örganiş.

Tadqiqotning vazifalari:

1. aholining axborot oliş böyiça asosiy kanallarini, ulardan foydalaniş çastotasi va xususiyatlarini örganiş;
2. turli axborot manbalariga aholining işonç darajasini aniqlaş;
3. turli mediaresurslarga murojaat qilişning asosiy maqsadi va sabablari, şuningdek, axborot materiallarining şakli va mazmuniga nisbatan afzalliklarni aniqlaş;
4. respondentlarning ijtimoiy-demografik xususiyatlariga köra mediaiste'mol xususiyatlarini tahlil qiliş;
5. ommaviy axborot vositalarining işi sifatiga aholining bahosini örganiş, ularning faoliyati va axborot tarqatişdagi eng dolzarb muammolarni aniqlaş;
6. aholi turli guruhlarining axborotga bölgan ehtiyojlarini aniqlaş;
7. raqamli axborot muhitining boşqa xavf-xatarlariga respondentlarning duç keliş tajribasini örganiş;
8. tadqiqot natijalarini umumlaştiriş va Özbekiston aholisi mediaiste'molining asosiy tendensiyalarini aniqlaş.

Sörov haqida umumiy ma'lumot

SÖROV DAVRI
8–19 sentyabr
2026 yil

RESPONDENTLAR
1411
nafar

YOŞI
18+
yoş va undan kattalar

QAMROV
14 mintaqa
Özbekistonning barça mintaqalari

1 Jinsi böyiça tarkibi

49,9%
erkaklar

50,1%
ayollar


2 Yaşaş joyi böyiça tarkibi

53,9%
şaharliklar



46,1%
qişloqliklar

3 Yoşi böyiça tarkibi



18–24	25–34	35–44	45–54	55+
19,9%	20,1%	20,3%	19,9%	19,8%

4 Metodika

Sörov usuli va tanlov

Jamoatçilik fikri sörovi 2026 yilning 8–19 sentyabr kunlari respondentlarning yaşaş joyida yuzma-yuz intervyu usulida ötkazildi. Sörovning reprezentativligi köp bosqiçli stratifikatsiyalangan tanlov hamda tumanlar, aholi punktlari, mahallalar, uy xöjaliklari va respondentlarni tasodifiy tanlaş orqali ta'minlandi.


A bölim. Tanlov tarkibi

1 Hududlar böyiça taqsimot

Qoraqalpoğiston Respublikasi	7,1%	Samarqand viloyati	7,2%
Andijon viloyati	7,2%	Surxondaryo viloyati	7,1%
Buxoro viloyati	7,2%	Sirdaryo viloyati	7,1%
Jizzax viloyati	7,1%	Toşkent viloyati	7,2%
Qaşqadaryo viloyati	7,2%	Farğona viloyati	7,2%
Navoiy viloyati	7,2%	Xorazm viloyati	7,1%
Namangan viloyati	7,1%	Toşkent şahri	7,2%

Söralganlarning umumiy soni mintaqalar böyiça teng taqsimlandi.

2 Ma'lumot darajasi



3 Bandlik turi

Doimiy işi bor	30,4%	Vaqtinça işlamaydiganlar	8,8%
Uy bekalari	15,1%	Tadbirkorlar	5,7%
Yoşga doir pensionerlar	14,7%	Bola parvarişi böyiça ta'tildagilar	3,6%
Özini özi band qilganlar	10,2%	Nogironlik böyiça pensionerlar	1,6%
Öquvçi va talabalar	9,6%	Iş staji böyiça pensionerlar	0,2%

Ma'lumotlar yagona standartlaştirilgan savolnoma asosida respondentlarning yaşaş joyida yuzma-yuz intervyu usulida töplandi.

Sözboşi

Taraqqiyot yönalişini ilm-fan va bilim belgilab berişi lozim. Milliy mass-mediani qöllab-quvvatlaş va rivojlantiriş jamoat fondi 2019 yilda taşkil etilganidan buyon ana şu tamoyilga amal qilib kelmoqda.

Şu yillar davomida jamoamiz jurnalistlar, blogerlar va matbuot xizmatlari xodimlari uçun önlab treninglar taşkil etdi. Xalqaro taşkilotlar va texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlikda köplab loyihalarni amalga oşirdik. Media sohasining rivojlanişini uning asosiy benefitsiarlari bölgan jurnalistlar, muharrirlar va blogerlar bilan ham, soha ekspertlari bilan ham birgalikda tahlil qildik. Bir qator konferensiyalar, jumladan, xalqaro anjumanlar ötkazib, ularda bilim almaşiş va media sohasini rivojlantirişga kömaklaşdik.

Bugun navbatdagi loyihamiz natijasini — Özbekistonda mediaiste'mol böyiça tadqiqotni — e'tiboringizga havola etişdan mamnunmiz. Umid qilamizki, u kundalik işingizda amaliy qöllanmaga aylanadi.

Aholini röyxatga oliş butun mamlakat uçun qançalik muhim bölsa, mediaiste'molga oid ma'lumotlar media sohasi uçun şunçalik ahamiyatlidir. Bizning fikrimizça, kontentni samarali tarqatiş uçun öz auditoriyasini çuqur anglaş zarur, çunki auditoriya bilan sifatli muloqot va uning faol iştiroki ommaviy axborot vositalariga bölgan işonçga hamda media taşkilotlarining moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir körsatadi. Boşqaça aytganda, kim, qayerda, qaçon va nimani tomoşa qiliş, tinglaş va öqişni afzal körişini biliş muhim. Bir tomonlama axborot uzatiş esa böşliqqa gapirişdan boşqa narsa emas.

Qölingizdagi hisobot Özbekiston aholisining mediaiste'mol odatlarini çuqurroq anglaş imkonini beruvçi öz yönalişidagi ilk tadqiqotdir. Aytiş mumkinki, odamlarning diqqati mobil telefon, televizor va kompyuter ekranlariga, şuningdek, gazeta va radioga qaratilgan paytlardagi kundalik xatti-harakatlari haqidagi sir pardasini bir oz bölsa-da oçmoqdamiz.

Ma'lumotlarni töplaşda bizga «Ijtimoiy fikr» respublika jamoatçilik fikrini örganiş markazidagi hamkorlarimiz yordam berdi. Ular Özbekistonning barça hududlarida, jumladan, qişloq joylarda aholi örtasida yuzma-yuz sörov taşkil etdi. Şu ma'noda tadqiqotimiz çinakam kaşşoflik işi böldi. Tadqiqot metodologiyasi va anketasini «Ijtimoiy fikr» markazi bilan hamkorlikda işlab çiqdik.

Şuningdek, Yevropa Ittifoqining Özbekistondagi Delegatsiyasidagi hamkorlarimizdan moliyaviy kömaklari uçun, Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ommaviy axborot vositalari uçun kontent tayyorlaş markazidan esa ma'muriy yordami uçun çuqur minnatdormiz. Loyihaning barça iştirokçilari Mass-media fondining maqsad va qadriyatlarini baham körgani bizni quvontiradi.

Loyihaning ikkinçi bosqiçi Özbekistonning olti hududida treninglar ötkazişdan iborat böladi. Jurnalistlar, blogerlar va matbuot xizmatlari xodimlari bilan birgalikda medianing moliyaviy barqarorligini mustahkamlaşning eng samarali mexanizmlarini muhokama qilamiz.

Kelgusida Özbekistonda mediaiste'molni örganiş tizimli tus olişini, aholi odatlariga oid tadqiqotlar esa tobora çuqurlaşib, yangi jihatlarni qamrab borişini istardik. Milliy ommaviy axborot vositalari rahbarlarini öz auditoriyalari örtasida sifatli sörovlar ötkazişga çaqiramiz. Siz rahbarlik qilayotgan media rivojining kaliti — auditoriyangiz sadoqatida.

Hurmat bilan,

Mass-media fondi jamoasi

Tadqiqotning qisqaça rezyumesi

Mediaiste'molning umumiy tendensiyalari

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanişi va axborot makonining transformatsiyasi şaroitida aholining mediaiste'moli xususiyatlarini, ularning axborotga bölgan qiziqişi, afzalliklari va turli axborot manbalariga bölgan işonç darajasini örganiş alohida ahamiyat kasb etadi. Ötkazilgan sotsiologik tadqiqot Özbekistonda an'anaviy va raqamli ommaviy axborot vositalaridan, jumladan, televideniye, radio, bosma va onlayn- naşrlar, ijtimoiy tarmoqlar va Telegram-kanallardan foydalaniş amaliyotini kompleks örganişga qaratilgan. Mediaiste'molda ijtimoiy-demografik va hududiy tafovutlarni aniqlaş, turli axborot resurslariga bölgan talabni baholaş, axborot muhitining asosiy muammolarini aniqlaş, şuningdek, tarqatilayotgan axborotlarning sifati, işonçliligi, xolisligi va ulardan foydalaniş imkoni böyiça jamoatçilik kutilmalarini örganişga alohida e'tibor qaratilgan. Olingan natijalar mediaiste'molni rivojlantirişning asosiy tendensiyalarini va Özbekiston axborot-kommunikatsiya muhitini takomillaştiriş yönalişlarini aniqlaş imkonini beradi;

Sotsiologik tadqiqot natijalari Özbekiston aholisining mediaiste'moli tarkibida an'anaviy ommaviy axborot vositalarining ahamiyati saqlanib qolgan holda raqamli axborot platformalarining roli kengayişi bilan tavsiflanadigan özgarişlar sodir bölayotganidan dalolat beradi. Televideniye fuqarolarning axborot hayotida muhim örin tutişda davom etmoqda, ijtimoiy tarmoqlar va Telegram esa yangiliklarni oliş, muloqot qiliş va zarur axborotlarni izlaşdagi kundalik amaliyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Şu bilan birga, manbalarni tanlaş, ulardan foydalaniş sur'ati va mavzular afzalliklarida yoş, gender va mintaqalar kesimida aniq ifodalangan tafovutlar aniqlandi. Yoş respondentlar asosan raqamli platformalar va qisqaroq axborot şakllariga e'tibor qaratişadi, katta yoşdagilar esa an'anaviy ommaviy axborot vositalariga köproq murojaat qilişadi. Foydalanilayotgan kanallardan qat'i nazar, sörov iştirokçilarining mamlakat va jahondagi voqealar, amalga oşirilayotgan islohotlar, davlat organlari faoliyati, ta'lim, soğliqni saqlaş, bandlik masalalari va aholining kundalik hayotiga bevosita ta'sir körsatadigan boşqa sohalardagi axborotlarga qiziqişi aniqlandi;

Aholining axborotga bölgan qiziqişi asosan davlat boşqaruvi, amalga oşirilayotgan islohotlar, ta'lim, fan, soğliqni saqlaş, bandlik va dolzarb ijtimoiy jarayonlar bilan boğliq voqealarga qaratilgan. Tadqiqot media-kontent şakllari böyiça afzalliklarning xilma-xilligini aniqladi: an'anaviy yangiliklar körsatuvlari va batafsil tahliliy materiallar bilan bir qatorda qisqa yangiliklar, axborot dayjestlari, köngiloçar dasturlar va qisqa videoroliklarga (rilslarga) talab katta. Bu esa tezkor va qisqa axborotlarga ham, mazmunli tahliliy kontentga ham jamoatçilik talabi mavjudligidan dalolat beradi;

Ommaviy axborot vositalarining jamoatçilik idrokidagi roli, eng avvalo, aholini sodir bölayotgan voqealar haqida xabardor qiliş, jamoatçilik fikrini şakllantiriş hamda davlat va fuqarolar örtasidagi özaro ta'sirni ta'minlaşdan iborat. Turli axborot manbalariga bölgan işonç yoşga xos xususiyatga ega bölib, u mediaafzalliklar va yangiliklar haqidagi axborotlarni oliş usullari örtasidagi tafovutlarni aks ettiradi;

Media sohasining holatini baholaş Özbekistondagi söz erkinligi darajasi, OAV mustaqilligi va jurnalistlarning professional faoliyati şart-şaroitlarini aholining umuman ijobiy idrok etişi bilan tavsiflanadi. Şu bilan birga, respondentlar eng dolzarb muammolar qatorida işonçsiz axborotlarning tarqatilişi, voqealarni yoritişning yetarli darajada xolis va beğaraz emasligi, davlat organlari faoliyati şaffofligining çeklanganligi va jurnalistlarning axborot olişdagi qiyinçiliklarini ajratib körsatişdi. Yolğon yoki çalğituvçi axborotlarni tarqatiş köpinça raqamli muhit, eng avvalo, YouTube, videobloglar, Telegram-kanallar, ijtimoiy tarmoqlar va internet-naşrlari bilan boğliqligi qayd etildi;

OAV faoliyatini takomillaştirişning asosiy yönalişlari, respondentlarning fikriça, axborot yoritilişining işonçliligi, xolisligi va tezkorligini oşiriş, faktlarni tekşirişni kuçaytiriş, tahliliy jurnalistikani rivojlantiriş va turli nuqtai nazarlarni taqdim etişni ta'minlaş bilan boğliqdir. Jurnalistlarning professional tayyorgarligini oşiriş, davlat organlari axborotidan foydalaniş imkoniyatini kengaytiriş, söz erkinligi va OAV mustaqilligining huquqiy kafolatlarini mustahkamlaş, şuningdek, işonçsiz axborotni tarqatganlik uçun javobgarlikni kuçaytirişga alohida e'tibor qaratilmoqda;

Tadqiqot natijalari Özbekiston aholisining mediaiste'moli an'anaviy ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini saqlab qolgan holda raqamli axborot platformalari rolining kengayişi bilan birga keçayotgan transformatsiyadan dalolat beradi. Axborot afzalliklarining xilma-xilligi va yangiliklar manbalarini tanlaşdagi yoş farqlari fonida işonçli, xolis, tezkor va mazmunli axborotlarga, şuningdek, jurnalistikaning professional standartlarini oşirişga va ommaviy axborot vositalariga bölgan işonçni mustahkamlaşga bölgan barqaror jamoatçilik talabi şakllanmoqda;

Televideniye

Televideniye axborot va köngiloçar manba sifatida öz ahamiyatini saqlab qolmoqda. Tadqiqot natijalariga köra, sörovning 67,5% iştirokçilari televizion dasturlarni tomoşa qiladi, 32,5% söralganlar esa uşbu axborot manbasidan foydalanmaydi. Tomoşa qiliş darajasi aniq yoş xususiyatlariga ega: katta yoşdagi guruhlar vakillari televizion kontentga yoş respondentlarga qaraganda köproq hollarda murojaat qilişadi. Iş kunlari tomoşa qilişning eng keng tarqalgan davomiyligi 30 daqiqadan ikki soatgaça, dam oliş kunlari esa bir soatdan ikki soatgaçani taşkil etadi. Şu bilan birga, şahar aholisi telekörsatuvlarni uzoqroq vaqt tomoşa qilişini köproq ta'kidlaşdi;

Televizion kontentni körişning asosiy makoni uy bölib qolmoqda, ammo undan foydalaniş usullari yoşga qarab farq qiladi. Yoş respondentlar smartfonlar, planşetlar va internet-platformalardan, jumladan, uydan taşqarida alohida syujetlar va körsatuvlarni tomoşa qiliş uçun

faolroq foydalanişadi. Dasturlarni tanlaşda sörov iştirokçilari asosan qiziqarli kontent izlab kanallarni almaştirişadi yoki muayyan körsatuvlarni oldindan tanlaşadi. Bu televideniyeni tomoşa qilişning an'anaviy modellari televizion kontent iste'molining zamonaviy raqamli şakllari bilan uyğunlaşganligini körsatadi;

Televizion afzalliklar tarkibida milliy telekanallar yetakçi örinni egallaydi, ular orasida Milliy TV, O'zbekiston 24, Zo'r TV va Sevimli TV eng köp talabga ega. Kanallarni tanlaş ijtimoiy-demografik öziga xoslikka ega: erkaklar köproq - sport kanallariga, ayollar Milliy TV va Sevimli TVga köproq murojaat qilişadi, katta yoşdagilar esa O'zbekiston 24 kanaliga qiziqiş bildirişdi. Bunda telekanallarni tanlaşning eng muhim mezonlari dasturlarning qiziqarli mazmuni, yangiliklar haqidagi axborotlarning dolzarbligi va oilaviy tomoşa qiliş imkoniyati hisoblanadi.;

Aholining turli guruhlari orasida eng köp talab qilinadigan televizion kontent turi yangiliklar bölib qolmoqda. Şu bilan birga, mavzular böyiça afzalliklarda ham farqlar kuzatiladi: erkaklar köproq sport, axborot va tarixiy-madaniy körsatuvlarni, ayollar - oila va salomatlik haqidagi dasturlarni, mahalliy filmlar va seriallarni, şuningdek, bolalar haqidagi kontentni tanlaydi. Katta yoş guruhlari vakillari ta'lim haqidagi körsatuvlar va milliy kinematografiyaga köproq qiziqiş bildirişdi, yoş respondentlar esa axborotlarning işonçliligi, intervyu va munozarali dasturlarga köproq e'tibor qaratişdi.;

Telekanallarga bölgan işonçni baholaşda turli jins va yoş guruhlari hamda mintaqalardagi respondentlar orasida yuqori darajadagi işonçni saqlab kelayotgan O'zbekiston 24 yetakçi örinni egalladi. Şu bilan birga, yoş va hududiy xususiyatlar ham aniqlandi: yoş iştirokçilar Zo'r TV va Milliy TV, katta yoş guruhlari vakillari - O'zbekiston va Mahalla telekanallarini köproq ajratib körsatişdi. Mintaqaviy kesimda Milliy TV - Samarqand viloyatida, Yoshlar - Qoraqalpoğiston Respublikasida, Zo'r TV va Sevimli TVning - Toşkent viloyati va boşqa bir qator mintaqalarda talabga egaligi ta'kidlandi;

Sörov iştirokçilarining fikriça, televizion kontentning asosiy muammolari körsatuvlarning bir xilligi va takrorlanişi, reklamaning haddan taşqari köpligi, şuningdek, mahalliy filmlar va seriallarning sifati bilan boğliq. Şu bilan birga, erkaklar köpinça tahliliy dasturlar, işonçli axborotlar va fikrlar xilma-xilligining yetişmasligini, ayollar esa bolalar va yoşlar uçun möljallangan körsatuvlarni yaxşilaş, reklamani kamaytiriş va mahalliy kinematografiya sifatini oşiriş zarurligini ta'kidlaşdi. Qişloq aholisi örtasida ta'lim kontentini kengaytiriş, televizion dasturlarning xilma-xilligini oşiriş va mintaqalar hayotini yoritişga bölgan talablar köproq sezildi;

Sörov iştirokçilari televizion körsatuvlarni takomillaştirişning ustuvor yönalişlarini dasturlarning sifati va mazmuniy xilma-xilligini oşiriş, axborot-tahliliy, ta'limiy va bolalar kontentini rivojlantiriş, reklama yuklamasini kamaytiriş, turli nuqtai nazarlarni taqdim etiş va aholining dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini kengroq yoritiş bilan boğlaşdi. Axborotning işonçliligi, yoritilayotgan voqealarning dolzarbligi va televizion dasturlarning turli tomoşabinlar guruhlarining manfaatlariga mosligiga alohida e'tibor qaratildi;

Tadqiqot natijalari mediaiste'molning raqamli usullari kengayişi barobarida televideniyening Özbekiston axborot makonidagi muhim örni saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Televideniye auditoriyasi kanallar tanlovi, mavzular böyiça afzalliklar va tomoşa qiliş şakllari böyiça yoş, jins va mintaqaviy tafovutlar bilan tavsiflanadi. Milliy telekanallar va yangiliklar kontentiga bölgan barqaror talab, şuningdek, işonç böyiça baholarda O'zbekiston 24ning yetakçi örin egallaşi bilan bir qatorda televizion dasturlarning sifati, işonçliligi va xilma-xilligini oşiriş, tahliliy va ta'lim haqidagi körsatuvlarni rivojlantiriş hamda aholining dolzarb muammolari va manfaatlarini yanada töliq aks ettiriş böyiça jamoatçilik talabi şakllanmoqda;

Radio

Radio aholining mediaiste'moli tarkibida nisbatan çeklangan örinni egallaydi. Tadqiqot natijalariga köra, 21,9% sörov iştirokçilari radioeşittirişlarni tinglaydi, 78,1% respondentlar esa uşbu axborot manbasiga murojaat qilmaydi. Şu bilan birga, radioni tinglaşning tarqalganligi ijtimoiy-demografik xususiyatga ega: erkaklar ayollarga qaraganda köproq radio tinglaşadi. Radiotinglovçilarning eng yuqori uluşi 35-44 yoşdagi respondentlar orasida (26,9%), eng past uluşi esa 18-24 yoşdagi yoşlar orasida (16,7%) aniqlandi;

Radio tinglaş asosan kundalik faoliyat bilan boğliq bölib, vaqt jihatidan özige xos xususiyatga ega. Tinglaşning asosiy vaqti ertalabki soatlarga, asosan soat 12:00gaça töğri keladi, garçi ma'lum faollik keçki paytlarda ham saqlanib qolsa-da. 35-44 yoşdagi radiotinglovçilar orasidagi 58,4% respondentlar radioni kuniga bir neça marta, 55 yoşdan oşgan tinglovçilar orasidagi 51,7% sörov iştirokçilari esa uni asosan ertalab tinglaşni afzal köradi. Radio asosan uyda va avtomobilda tinglanadi. Ayollar va katta yoşdagilar radioni asosan uyda, 25-44 yoşdagi erkaklar va respondentlar esa avtomobil haydayotganda köproq tinglaşadi. Şuningdek, uy yumuşlarini bajariş va dam oliş paytida radioeşittirişlarning köproq tinglanişi ularning tinglovçilar kundalik amaliyotiga singib ketganligini körsatadi;

Radiostansiyalar tanlovidagi afzalliklar respondentlarning jinsi va yoşiga qarab farqlanadi. Eng köp tilga olingan radiostansiyalar orasida Vodiy Sadosi, Yoshlar, Mahalla va O'zbekiston 24 radiostansiyalari ajralib turadi. Şu bilan birga, Vodiy Sadosi radiostansiyasini 38,2% respondentlar qayd etişdi, Yoshlar va Mahalla ayollar va katta yoşdagi guruhlar vakillari orasida sezilarli darajada maşhur, O'zbekiston 24 radiostansiyasi esa yoş tinglovçilar orasida ajralib turadi. Aniqlangan tafovutlar radioauditoriyaning afzalliklari bir xil emasligini va alohida ijtimoiy-demografik guruhlar uçun dasturlar mazmunining ahamiyatini aks ettiradi;

Radiostansiyalarni tanlaşning asosiy omillari musiqiy mazmun va yangiliklar haqidagi axborotlarning dolzarbligi hisoblanadi. Musiqiy format 64,4% radiotinglovçilarni, dolzarb yangiliklar - 42,7%, yoqimli qöşiqlar va sevimli ijroçilarning tez-tez çiqişi - 38,5%, işonçli va foydali axborootlar 26,2% respondentlar e'tiborini jalb qiladi. Şu bilan birga, afzalliklarning yoşga qarab farqlanişi kuzatildi: 18-24 yoşli tinglovçilar orasida musiqiy format şaydolari 74,5%ni taşkil etdi, katta

yoşdagilar köproq dolzarb yangiliklarni (53,4%) va sevimli ijroçilarni tinglaş imkoniyatini (50,0%) ta'kidlaşdi. Bu har xil yoş guruhlari uçun alohida formatlarning ahamiyati turliça bölgani holda radioning köngiloçar va axborot funksiyalari uyğunligidan dalolat beradi;

Radiokontentni idrok etişning özіga xos xususiyatlari maqsadli tinglaş va biror-bir yumuşni bajariş barobarida tinglaşning uyğunligidan dalolat beradi. 42,1% radiotinglovçilar tanlangan eşittirişlarni diqqat bilan tinglaşni afzal körişini bildirdi, 21,4% - alohida ruknlarni kuzatib boradi, 18,8% söralganlar esa qiziqarli kontent izlab radiostansiyalarni almaştirib turadi. Bir vaqtning özida radiodan uy işlarini bajariş (41,4%) va dam oliş (30,7%) paytida foydalaniladi, bu uning doimiy vizual e'tiborni talab qilmasdan odamlarning kundalik faoliyatiga hamrohlik qiliş qobiliyatini aks ettiradi;

Tadqiqot natijalari şuni körsatdiki, auditoriyasining qamrovi nisbatan çeklangan bölsa-da, radio Özbekiston aholisining mediaiste'molida muayyan bir rolni saqlab qolmoqda. Radio tinglaş yoş va jinsga köra tafovutlar, asosan ertalab va kundalik faoliyat bilan çambarças boğliq ravişda tinglaş bilan tavsiflanadi. Radio auditoriyasining afzalliklari asosini musiqiy dasturlar va dolzarb yangiliklar taşkil etadi, ayni vaqtda yoş tinglovçilar köproq köngiloçar dasturlarga, katta yoş guruhlari vakillari esa musiqiy va axborot kontenti uyğunligiga e'tibor qaratişi aniqlandi. Olingan natijalar radioning ma'lum ijtimoiy-demografik guruhlar va kundalik vaziyatlarda talab qilinadigan qöşimça axborot va köngiloçar manba sifatida saqlanib qolişini körsatadi;

Bosma va onlayn-matbuot

Bosma va onlayn-matbuot aholining mediaiste'moli tarkibida nisbatan çeklangan örinni egalladi. Tadqiqot natijalariga köra, 28,3% sörov iştirokçilari uşbu axborot manbalariga murojaat qilişadi, 71,7% respondentlar esa bosma va onlayn-naşrlarni öqimaydi. 38,8% respondentlar faqat elektron formatdan, 32,6% - bosma formatdan, 28,6% söralganlar esa ikkala formatdan ham foydalanadi. Şu bilan birga, axborot oliş usulini tanlaş yoşga xos xususiyatga ega bölib, bu aholining alohida guruhlari mediaafzalliklaridagi tafovutlarni aks ettiradi;

Matbuot mutolaasi muntazamligi va asosan uyda öqilişi şakli bilan tavsiflanadi. Matbuotni öqiydiganlarning aksariyati (55,9%) bosma va onlayn naşrlarga har kuni, 34,8% esa kuniga bir neça marta murojaat qiladi. Asosiy öqiş joyi uy bölib qolmoqda (80,5%), mutolaa uçun eng keng tarqalgan vaqt keçki soat 18:00 dan 24:00 gaça bölgan vaqt hisoblanadi. Iş kunlari 71,9% respondentlar matbuot mutolaasiga bir soatdan ortiq vaqt ajratmaydi, dam oliş kunlari esa mutolaa davomiyligi ortadi. Şu bilan birga, bosma naşrlardan foydalaniş asosan çakana savdo va obuna orqali, onlayn-naşrlarga esa mobil ilovalar (58%), Telegram-kanallar (37,2%), naşrlar saytlari (31,6%) va ijtimoiy tarmoqlar (31,2%) orqali amalga oşiriladi;

Fuqarolarning axborotga bölgan qiziqişi asosan mamlakat va jahondagi voqealarga, şuningdek, dolzarb ijtimoiy ahamiyatga molik mavzularga qaratilgan. Özbekistondagi yangiliklar (57,4%), xalqaro voqealar (43,4%), ta'lim va ilm-fan (34,3%), soğliqni saqlaş (27,3%), davlat organlari

siyosati va faoliyati (24,8%) haqidagi materiallar eng köp qiziqiş uyğotmoqda. Bunda gender tafovutlar ham kuzatildi: erkaklar köproq mamlakatdagi siyosiy voqealar va yangiliklarga, ayollar esa soğliqni saqlaş, ta'lim va oila masalalariga qiziqiş bildirişdi;

Fuqarolarning afzalliklari tarkibida bir qator yetakçi bosma va onlayn- naşrlar ajralib turadi. Bosma naşrlar orasida "Xalq so'zi" (38,9%), "Yangi O'zbekiston" (37,7%) va "Mahalla" (28,7%) naşrlariga talab yuqori böldi, onlayn-naşrlar orasida Kun.uz (74,7%), Daryo.uz (43,5%) va Qalampir.uz (36,8%) yetakçilik qilmoqda. Olingan natijalar an'anaviy va raqamli matbuot auditoriyasining afzalliklarida farq borligidan, ayni paytda ijtimoiy-siyosiy va dolzarb yangiliklarga bölgan qiziqiş saqlanib qolayotganidan dalolat beradi;

Bosma va onlayn-naşrlarni tanlaşning asosiy mezonlari e'lon qilinayotgan ma'lumotlarning xolisligi va işonçliligi hisoblanadi. 50,4% respondentlar voqealarni yoritişning xolisligini, 50,1% - axborot manbasiga işonçni ta'kidladi. Şuningdek, yangiliklarni tezkorlik bilan e'lon qiliş (30,3%), bayon qilişning qulayligi va tuşunarliligi (24,6%), materiallarning şaxsiy manfaatlarga muvofiqligi (22,1%) va axborotning amaliy foydaliligi (19%) ham muhim ahamiyatga ega. Bu fuqarolar uçun naşrlarning nafaqat dolzarbligi va öz vaqtidaligi, balki ular mazmunining sifati ham muhimligini körsatadi;

Bosma va onlayn-matbuotning asosiy muammolari ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni yetarliça çuqur yoritmaslik bilan boğliq. Eng köp talab qilinadigan, ammo yetarli darajada taqdim etilmayotgan materiallar orasida respondentlar dolzarb ijtimoiy muammolarni oçiq muhokama qiliş (31,8%), xolis va işonçli yangiliklar (30,1%), çuqur tahliliy maqolalar (29,1%), fuqarolarning kundalik muammolari (24,3%), jurnalistik suriştiruvlar (20,6%) va faktlarni tekşiriş böyiça materiallarni (20,1%) qayd etişdi. Olingan ma'lumotlar matbuot ixlosmandlari auditoriyasining yanada mazmunli, tahliliy va ijtimoiy yönaltirilgan jurnalistikaga bölgan talabini aks ettiradi;

Sörov iştirokçilari bosma va onlayn-matbuotni takomillaştirişning ustuvor yönalişlarini voqealarni har tomonlama xolis yoritiş (43,1%), aholi muammolari va ehtiyojlariga e'tiborni kuçaytiriş (34,6%), yangiliklarni e'lon qiliş tezkorligini oşiriş (31,6%) hamda turli fikr va nuqtai nazarlarni taqdim etişni kengaytiriş (20,3%) bilan boğlaşdi. Tahliliy materiallar, jurnalistik suriştiruvlar va axborotlarning işonçliligini tekşiriş amaliyotini rivojlantiriş alohida ahamiyat kasb etadi, bu esa naşrlar sifatini oşiriş va fuqarolar işonçini mustahkamlaşga xizmat qiladi;

Tadqiqot natijalari aholining bosma va onlayn-matbuot iste'moli muntazamligi yetarliça yuqori bölgani holda uning qamrovi nisbatan çeklanganligini körsatdi. Elektron formatlarning asta-sekin kengayişi fonida an'anaviy bosma naşrlarga bölgan talab saqlanib qolmoqda. Manbalarni tanlaşning asosiy omillari axborotning xolisligi, işonçliligi va tezkorligi bölib, asosiy jamoatçilik talabi voqealarni tahliliy yoritişni çuqurlaştiriş, dolzarb muammolarni oçiq muhokama qiliş, fikrlar xilma-xilligini kengaytiriş va fuqarolarning kundalik ehtiyojlariga e'tiborni oşiriş bilan boğliqdir;

Ijtimoiy tarmoqlar

Ijtimoiy tarmoqlar aholining mediaiste'moli tarkibida salmoqli örinni egallaydi. Tadqiqot natijalariga köra, sörovning 64,8% iştirokçilari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi, 35,2% respondentlar foydalanmaydi. Foydalanuvçilarning eng yuqori uluşi 18-24 (84%) va 25-34 yoşli respondentlar (77,5%) orasida qayd etildi, 55 yoş va undan kattalar orasida bu körsatkiç 38,4%ni taşkil etdi. Mintaqalar kesimida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanişning eng yuqori darajasi Andijon (88,1%), Xorazm (82%) va Samarqand (80,2%) viloyatlarida qayd etildi. Olingan natijalar raqamli mediaiste'molning yoş va hududiy kesimda sezilarli darajada farqlanişini körsatadi;

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvçilarining afzalliklari tarkibida Instagram ustunlik qiladi, undan 92,7% söralganlar foydalanadi, bu borada Facebook - 28,2%, TikTok - 14,2% körsatkiçni taşkil etdi. Şu bilan birga, 87,2% foydalanuvçilar Instagram'ni eng köp foydalaniladigan platforma deb ataşdi. Ijtimoiy tarmoqlarni tanlaşning asosiy omillari materiallarning qiziqarli mazmuni (49,9%), qarindoşlar va döstlar bilan muloqot qiliş imkoniyati (44,2%), yangiliklarni tezkor oliş (40,7%) va ulardan foydalanişning qulayligi (30,9%) hisoblanadi. Bu ijtimoiy platformalarning axborot, kommunikativ va köngiloçar funksiyalarining uyğunligidan dalolat beradi;

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalaniş yuqori intensivlik va muntazamlik bilan tavsiflanadi. Foydalanuvçilarning aksariyati (81,3%) ularga kuniga bir neça marta, asosan keçki soat 21:00 dan 24:00 gaça (50,8%) va 18:00dan 21:00gaça (40%) murojaat qiladi. Asosiy foydalaniş joyi uy bölib qolmoqda (75%). Iş kunlari ijtimoiy tarmoqlarda bölişning eng keng tarqalgan davomiyligi 30 daqiqadan ikki soatgaça, dam oliş kunlari esa ularda uç soat va undan köproq vaqt ötkazadigan foydalanuvçilar uluşi ortadi (8,9%dan 21,3%gaça). Olingan ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlarning aholining kundalik hayotiga barqaror integratsiyasini aks ettiradi;

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanişning asosiy maqsadlari axborot oliş va ijtimoiy aloqalarni qöllab-quvvatlaş hisoblanadi. Foydalanuvçilar ularga eng köp hollarda yangiliklarni biliş (62,5%), qarindoşlar va döstlar bilan muloqot qiliş (57,3%), örganiş (38,4%), köngil oçiş (35,7%), foto va videomateriallarni köriş (32,3%), şuningdek, iş va kasbiy rivojlaniş (27,4%) uçun murojaat qiladi. Bunda kerakli axborotni maqsadli izlaş (61,9%) va yangiliklar lentasini köriş (51%) ustunlik qiladi. Obunalar tarkibi asosan qarindoşlar, döstlar va tanişlar (68%), hamkasblar va yaqin ijtimoiy muhit vakillariga (40,5%), şuningdek, yangiliklar va axborot resurslariga (23,9%) qaratilgan;

Foydalanuvçilarning axborotlar böyiça asosiy sörovlari e'lon qilinayotgan materiallarning işonçliligi, xolisligi va mazmundorligi bilan boğliq. Yetarli darajada taqdim etilmayotgan kontent turlari orasida respondentlar işonçli yangiliklarni (37,5%), voqealarni xolisona yoritişni (31,6%), çuqur tahliliy materiallarni (24,5%) va murakkab ijtimoiy masalalarga sodda tilda tuşuntirişlarni (17,9%) ajratib körsatişdi. Bu esa auditoriyaning axborotni nafaqat tezkor olişga, balki uning sifati, işonçliligi va tahliliy çuqurligini oşirişga bölgan ehtiyojini körsatadi;

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanişning asosiy muammolari işonçsiz axborotlarning tarqalişi va raqamli xavfsizlikka tahdidlar bilan boğliq. Foydalanuvçilarning deyarli yarmi soxta yangiliklar va işonçsiz axborotlarga (48,7%), uçdan bir qismidan köproği firibgarlik va pul undirişga urinişlar (34%) bilan duç kelgan. Boşqa keng tarqalgan muammolar orasida bezor qiluvçi reklamalar (31,9%), şubhali havolalar va zararli fayllar (24,9%), şuningdek, akkauntlarni buzib kirişga urinişlar (24,2%) qayd etildi. Olingan natijalar aholining raqamli savodxonligini oşiriş, axborotni tanqidiy baholaş könikmalarini rivojlantiriş va raqamli muhitda foydalanuvçilarni himoya qiliş mexanizmlarini mustahkamlaşning dolzarbligini körsatadi;

Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlarning Özbekiston aholisi, ayniqsa, yoşlarning axborot va kommunikativ hayotida muhim örin tutişini körsatdi. Ulardan foydalaniş yuqori muntazamlik, Instagram'ning yaqqol hukmronligi va axborot, ta'lim, köngiloçar va professional maqsadlarning uyğunligi bilan tavsiflanadi. Şu bilan birga, raqamli mediaiste'molning kengayişi e'lon qilinayotgan axborotlarning işonçliligi va xolisligini oşiriş, sifatli tahliliy kontentni rivojlantiriş va raqamli xavfsizlikni kuçaytirişga bölgan jamoatçilik talabi bilan birgalikda kuzatiladi. Olingan ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlardan mas'uliyatli foydalaniş madaniyatini şakllantiriş, media savodxonligini oşiriş hamda foydalanuvçilarni axborot va kibertahdidlardan himoya qiliş muhimligini ta'kidlaydi;

Telegram

Telegram sörov iştirokçilarining kundalik axborot-kommunikatsiya faoliyatida muhim örin tutadi. Platformadan foydalaniş yuqori muntazamlik bilan tavsiflanadi: 85,3% foydalanuvçilar kuniga bir neça marta, asosan keçki soat 18:00dan 21:00gaça (43,3%) va 21:00dan 24:00gaça (41,9%) murojaat qiladi. Asosiy foydalaniş joyi uy bölib qolmoqda (72%). Olingan natijalar Telegramning axborot oliş, muloqot qiliş va turli muammolarni hal qilişning kundalik amaliyotiga barqaror ravişda kirganligini körsatadi;

Telegram foydalanuvçilarining axborot afzalliklari asosan yangiliklar va ijtimoiy ahamiyatga ega mavzularga qaratilgan. Özbekiston yangiliklari (55,2%), xalqaro voqealar (27,1%), ta'lim muassasalari (22,4%), şuningdek, mahalliy hokimiyat organlari va mahallalar (21,2%) haqidagi axborotlar kanallari eng ommaviylaşgan kanallar hisoblanadi. Kanallar borasida ham gender tafovutlar kuzatiladi: ayollar köproq ta'lim, soğliqni saqlaş va oila masalalariga, erkaklar esa xalqaro yangiliklar, sport, biznes va rasmiy davlat idoralari ma'lumotlariga qiziqişadi. Bu auditoriyaning mavzuga oid qiziqişlari xilma-xilligini va dolzarb axborotlar manbai sifatida Telegramga bölgan talabni aks ettiradi;

Telegramdan foydalanişning asosiy muammolari işonçsiz axborotlarning tarqatilişi va axborot yuklamasining köpligi bilan boğliq. Respondentlar köpinça tekşirilmagan yoki yolğon ma'lumotlarni (35,1%), bezor qiluvçi reklama va spamni (31,6%), şuningdek, haddan taşqari tez-tez bildirişnomalarni (26,9%) qayd etişdi. Şu bilan birga, foydalanuvçilar raqamli xavfsizlikka tahdidlarga, jumladan, firibgarlik xabarlari va takliflariga (24,4%), soxta internet-dökonlar va sotuvçilarning

akkauntlariga (23,2%) duç kelişadi. Olingan ma'lumotlar platformadan xavfsiz va samarali foydalanişni murakkablaştirişga qodir axborot xavflari mavjudligini körsatadi;

Yuzaga kelayotgan muammolarning xarakteri ijtimoiy-demografik va hududiy xususiyatga ega. Yoş foydalanuvçilar köpinça zararli fayllar, soxta akkauntlar va guruhlarga istalmagan holda qöşib qöyişlar haqida xabar berişdi. Erkaklar işonçsiz axborotlar va alohida raqamli tahdidlarga, ayollar esa guruhlarga istalmagan holda qöşib qöyişlar va soxta internet-dökonlarga duç kelişini birmunça köproq qayd etişdi. Qişloq aholisi orasida bezor qiluvçi reklama va firibgarlik xabarlaridan şikoyatlar köproq böldi. Mintaqalar kesimida işonçsiz axborotlar tarqalişini Qoraqalpoğiston Respublikasi va Surxondaryo viloyati respondentlari, bezor qiluvçi reklamani esa Farğona, Namangan va Samarqand viloyatlari respondentlari köproq qayd etişdi;

Telegramdan foydalaniş sifati va xavfsizligini oşirişning ustuvor yönalişlari aholining raqamli va mediasavodxonligini rivojlantiriş, axborotni tanqidiy baholaş, birlamçi manbalarni tekşiriş va firibgarlik xabarlarini aniqlaş könikmalarini şakllantiriş bilan boğliq. Foydalanuvçilarning şaxsga oid ma'lumotlarini himoya qiliş va raqamli resurslar bilan xavfsiz işlaş usullari haqidagi xabardorligini oşiriş, şuningdek, tegişli axborot-ma'rifiy tadbirlarni işlab çiqişda yoş, jins va mintaqaviy tafovutlarni hisobga oliş alohida ahamiyatga ega;

Tadqiqot natijalari sörovda qatnaşgan foydalanuvçilar orasida Telegramdan foydalanişning yuqori intensivligini va uning yangiliklar, ijtimoiy ahamiyatga ega axborotlarni olişda va kundalik muloqotda muhim rol öynaşini körsatadi. Şu bilan birga, platformaga bölgan yuqori talab axborot va raqamli xavflarning, eng avvalo, işonçsiz axborotlar, bezor qiluvçi reklama va firibgarlik xabarlarining tarqalişi bilan birga kuzatilmoqda. Aniqlangan xususiyatlar alohida ijtimoiy-demografik va hududiy guruhlarning foydalanuvçilik tajribasidagi tafovutlarni hisobga olgan holda axborot muhiti sifatini oşiriş, raqamli xavfsizlikni mustahkamlaş va aholining mediasavodxonligini rivojlantiriş zarurligini ta'kidlaydi;

Umumiy xulosa

Şu bilan birga, tadqiqot natijalari şuni körsatdiki, tarqatilayotgan axborotlarning işonçliligi, xolisligi, tezkorligi va mazmuniga köra sifati axborot sohasidagi asosiy ijtimoiy talablar bölib qolmoqda. Sörov iştirokçilari ijtimoiy ahamiyatga molik voqealarni çuqurroq tahliliy yoritiş, aholining dolzarb muammolarini oçiq muhokama qiliş, turli nuqtai nazarlarni taqdim etiş va jurnalistikadagi professional standartlarni oşiriş zarurligini ta'kidlaşmoqda. Işonçsiz axborotlarni tarqatiş, firibgarlik va raqamli platformalar foydalanuvçilarining xavfsizligini ta'minlaş masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Olingan natijalar milliy axborot makonini kompleks rivojlantiriş, an'anaviy va raqamli ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillaştiriş, axborot manbalariga işonçni mustahkamlaş, mediasavodxonlikni oşiriş va xavfsiz axborot muhitini şakllantiriş muhimligini ta'kidlaydi. Şu bilan birga, mediaiste'molning aniqlangan ijtimoiy-demografik va hududiy xususiyatlarini hisobga oliş

axborot siyosatining ustuvor yönalişlarini yanada manzilliroq belgilaş hamda davlat, ommaviy axborot vositalari va jamiyat örtasidagi özaro hamkorlik samaradorligini oşiriş imkonini beradi.



B bölim. OAV va mediaiste’mol haqidagi umumiy savollar

50,4%
mamlakatdagi yangiliklarni muntazam kuzatib boradi
1-rasm

51,6%
yangiliklarni Telegram-kanallardan bilib oladi
4-jadval

44,3%
televideniyega eng köp işonadi
23-jadval

Axborot makonini rivojlantiriş, ommaviy axborot vositalari erkinligini ta’minlaş va aholini xabardor qiliş sifatini oşiriş masalalariga ham global, ham milliy darajada e’tibor qaratilmoqda. Bu ommaviy axborot vositalari zamonaviy jamiyatning axborot, ma’rifiy, kommunikativ va ijtimoiy-nazorat funksiyalarini bajaradigan eng muhim institutlaridan biri sifatida maydonga çiqayotgani bilan boğliqdir.

Media sohasining rivojlanişini belgilovçi xalqaro doira ommaviy axborot kommunikatsiyalari va ularning erkinligi, fikr bildiriş erkinligi, mediasavodxonlik va jurnalistlarni himoya qilişni tuşunişga yondaşuvlardan iborat[1].

Özbekiston Respublikasining axborot sohasini rivojlantirişga tizimli yondaşuvi, bir tomondan, axborot siyosatini amalga oşiriş böyiça normativ-huquqiy va institutsional bazani takomillaştirişda, boşqa tomondan, ommaviy axborot vositalari erkinligi kafolatlarini kengaytirişda,

[1] UNESCO. 2025. Journalism: Shaping a World at Peace. World Trends in Freedom of Expression and Media Development, Global Report 2022/2025. Paris: UNESCO; Руководящие принципы регулирования цифровых платформ. Многосторонний подход к обеспечению свободы выражения мнений и доступа к информации. UNESCO, 2023. 57 с.; Гриззл А., Уилсон К., Туазон Р.и др. Мыслите критически, кликайте с умом! Учебная программа ЮНЕСКО по медийной и информационной грамотности для педагогов и учащихся. ЮНЕСКО, 2021. 476 с.

fuqarolarning axborotdan foydalanişini ta'minlaşda va davlat organlari faoliyatining oçiqligini oşirişda öz ifodasini topmoqda. Xususan, normativ-huquqiy darajada uşbu sohani tartibga soliş, eng avvalo, Özbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari töğrisida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari töğrisida", "Telekommunikatsiyalar töğrisida", "Jurnalistlik faoliyatini himoya qiliş töğrisida"gi Qonunlari bilan amalga oşiriladi[2]. Axborot sohasidagi davlat siyosati normativ-huquqiy hujjatlar tizimi bilan tartibga solinadi va vakolatli davlat organlari tomonidan öz vakolatlari doirasida amalga oşiriladi. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 iyuldagi PF-111-son Farmoniga muvofiq, axborot sohasidagi nazorat va monitoring funksiyalari Axborotlaştiriş va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasiga yuklatildi[3].

Özbekistonning axborot siyosati kontekstida mamlakatning yangi medialandşaftini şakllantiradigan texnologik va ijtimoiy özgarişlar yuz bermoqda. Zamonaviy medialandşaft an'anaviy va raqamli medianing birgalikda mavjudligi, internet-platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar rolining ortişi, şuningdek, inson ijtimoiy ahamiyatga molik, yangiliklar, ta'lim va köngiloçar axborotlarni olişi mumkin bölgan kanallar sonining köpayişi bilan tavsiflanadi.

Medialandşaftning özgarişi tabiiy ravişda davlat axborot siyosatining özgarişiga, OAV faoliyatiga va jurnalistlarning öz professional faoliyatini amalga oşirişiga qöyiladigan yangi axloqiy talablarning paydo bölişiga, auditoriya xulq-atvoriga ta'sir körsatadi.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari aholining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi voqealar haqida axborot olişining asosiy kanali hisoblanadi. Mediaiste'molning xususiyati nafaqat turli xil axborot manbalarining mavjudligini, balki şakllangan axborot afzalliklarini, kundalik amaliyotlar va kommunikatsiyaning alohida kanallariga auditoriyaning işonç darajasini ham aks ettiradi.

Mediaiste'molning tuzilmasi va mazmuni özgarmas hisoblanmaydi, balki texnologik va ijtimoiy özgarişlar ta'sirida transformatsiyalaşadi. Xususan, raqamli texnologiyalarning rivojlanişi foydalanilayotgan axborot kanallari doirasining kengayişiga va mediaiste'molning şakllangan amaliyotlari özgarişiga olib keldi. Bunday şaroitda aholi mediaiste'molining zamonaviy amaliyotlari, uning asosiy xususiyatlari va auditoriyaning turli ommaviy axborot vositalariga munosabatini örganiş dolzarb ahamiyat kasb etadi.

OAV töğrisidagi jamoatçilik fikri va mediaiste'molning öziga xos xususiyatlarini örganiş natijalari tahlili quyidagi indikatorlar asosida amalga oşirildi:

1) mamlakatdagi yangiliklarga fuqarolar qiziqişining muntazamligi;
2) mamlakatdagi yangiliklar haqidagi axborot manbalari va ulardan foydalaniş sabablari;

[2] Özbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari töğrisida" (yangi tahrirda) 1997 yil 26 dekabrdagi 541-I-son Qonuni; Özbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiyalar töğrisida" 2024 yil 27 dekabrdagi ÖRQ-1015-son Qonuni; Özbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari töğrisida" 2002 yil 12 dekabrdagi 439-II-son Qonuni; Özbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qiliş töğrisida" 1997 yil 24 apreldagi 402- I-son Qonuni.


[3] Özbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boşqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oşiriş çora-tadbirlari töğrisida" 2025 yil 14 iyuldagi PF-111-son Farmoni.

3) OAVdagi yangiliklarga fuqarolar qiziqişining mazmunan yönaltirilganligi;
4) OAVda axborotlarni beriş şakli va tili;
5) mamlakatda OAVning rivojlanişini va ularning rolini baholaş;
6) mamlakatda OAVga bölgan işonç darajasi hamda işonçsiz va yolğon axborotlarga munosabat;
7) OAV faoliyati va ularning mamlakatda rivojlaniş istiqbollarini baholaş.

B.1 Mamlakatdagi yangiliklarga fuqarolar qiziqişining muntazamligi

Sörov natijalari şuni körsatdiki, har ikkinçi respondent (50,4%) mamlakatdagi yangiliklar va voqealarni - muntazam ravişda, söralganlarning deyarli uçdan bir qismi (30,4%) esa vaqti-vaqti bilan kuzatib boradi (1-rasm).

1-rasm **Ayting-çi, siz mamlakatimizda yuz berayotgan yangiliklar va voqealar bilan qiziqasizmi?**
(söralganlar sonidan % hisobida, umumiy tanlov va jins kesimida)



Gender kesimida erkaklar mamlakatda sodir bölayotgan yangiliklar va voqealarga ayollarga qaraganda biroz köproq qiziqişadi (mos ravişda 53,1% va 47,7%). Yoş ulğaygani sari mamlakatdagi voqealarni yorituvçi yangiliklarga muntazam qiziqiş ortib borişi körindi: 18-24 yoşlilarda - 43,1%, 55 va undan katta yoşdagilar orasida - 56,3% (*1-jadval*).

Ayrim respondentlar mamlakatda sodir bölayotgan yangiliklar va voqealar bilan kamdan-kam qiziqişadi (15,1%) yoki deyarli qiziqmaydi (4,1%) (*1-rasm*). Yoş ulğaygani sari mamlakatda sodir bölayotgan yangiliklar va voqealarga qiziqişning pasayişi kuzatildi. Şunday qilib, 18-24 yoşli 21% respondentlar hamda 55 va undan katta yoşdagi 10,4% respondentlarning kamdan-kam hollarda va faqat muhim voqealar bilan qiziqişi aniqlandi (*1-jadval*).

1-jadval **Ayting-çi, siz mamlakatimizda yuz berayotgan yangiliklar va voqealar bilan qiziqasizmi?**
(söralganlar sonidan % hisobida, yoş kesimida)

	Ha, yangiliklarni muntazam kuzatib boraman	Ha, vaqti-vaqti bilan qiziqib turaman	Kamdan-kam, faqat eng muhim voqealarga qiziqaman	Deyarli qiziqmayman
18-24-yoşlilar	43,1	29,9	21,0	6,0

	Ha, yangiliklarni muntazam kuzatib boraman	Ha, vaqti-vaqti bilan qiziqib turaman	Kamdan-kam, faqat eng muhim voqealarga qiziqaman	Deyarli qiziqmayman
25-34-yoşlilar	50,7	29,6	15,1	4,6
35-44-yoşlilar	52,8	29,4	12,9	4,9
45-54-yoşlilar	49,1	33,5	16,0	1,4
55 yoş va undan kattalar	56,3	29,7	10,4	3,6

Mintaqalar kesimida mamlakatda sodir bölayotgan yangiliklar va voqealarga muntazam qiziqiş, umumiy tanlovga nisbatan Buxoro (65,3%), Navoiy (72,3%), Farğona (59,8%) va Xorazm (64%) viloyatlari respondentlarida köproq kuzatildi.

2-jadval **Ayting-çi, siz mamlakatimizda yuz berayotgan yangiliklar va voqealar bilan qiziqasizmi?**
(mintaqalar va yaşaş joyining turi böyiça % hisobida)

	Ha, yangiliklarni muntazam kuzatib boraman	Ha, vaqti-vaqti bilan qiziqib turaman	Kamdan-kam, faqat eng muhim voqealarga qiziqaman	Deyarli qiziqmayman
MINTAQALAR				
Toşkent şahri	43,1	29,4	21,6	5,9
Qoraqalpoğiston Respublikasi	35,0	41,0	21,0	3,0
Andijon viloyati	53,5	33,7	11,9	1,0
Buxoro viloyati	65,3	15,8	13,9	5,0
Jizzax viloyati	44,0	37,0	13,0	6,0
Qaşqadaryo viloyati	38,2	38,2	20,6	2,9
Navoiy viloyati	72,3	16,8	7,9	3,0
Namangan viloyati	48,0	30,0	18,0	4,0
Samarqand viloyati	43,6	41,6	10,9	4,0
Surxondaryo viloyati	50,0	34,0	9,0	7,0
Sirdaryo viloyati	45,0	40,0	14,0	1,0
Toşkent viloyati	43,6	27,7	22,8	5,9
Farğona viloyati	59,8	19,6	14,7	5,9
Xorazm viloyati	64,0	21,0	12,0	3,0
YAŞAŞ JOYI TURI				
Şahar	53,2	27,0	15,1	4,7
Qişloq	47,2	34,4	15,1	3,4

**Kam sonli guruhlar böyiça natijalar axborot-ma'lumot xususiyatiga ega va kuzatuvlar hajmining çeklanganligi sababli ehtiyotkorona talqinni talab etadi.*

Mamlakatning axborot kun tartibiga muntazam ravişda yoki vaqti-vaqti bilan yetarliça yuqori darajada jalb etilganlik Andijon (87,2%), Navoiy (89,1%), Samarqand (85,2%), Sirdaryo (85%) va Xorazm (85%) viloyatlari aholisiga xosdir (*2-jadval*).

Mamlakatdagi yangiliklar va voqealarga muntazam qiziqiş qişloq joylarda yaşovçi respondentlarga (47,2%) nisbatan şaharda yaşovçi respondentlarga (53,2%) köproq xosdir (*2-jadval*). Biroq mamlakatdagi yangiliklarga qiziqişning muntazamligi va davriyligining umumiy

körsatkiçi şaharliklar va qişloq aholisining axborot kun tartibiga teng jalb etilganligidan dalolat beradi.

Muayyan turdagi OAVdan foydalanuvçi respondentlar kesimida tahlil şuni körsatadiki, bosma va elektron naşrlar öquvçilari (60,2%) va radio tinglovçilari (55%) orasida yangiliklarni muntazam kuzatib boruvçi respondentlarning uluşi eng yuqori. Ijtimoiy tarmoqlar (50,6%) va Telegram (50,4%) foydalanuvçilari orasida muntazam ravişda yangiliklarga qiziqadiganlar uluşi biroz pastroq (3-jadval). Umuman olganda, muntazam va davriy qiziqişning uyğunligi körib çiqilayotgan barça turdagi ommaviy axborot vositalari auditoriyasining mamlakat axborot kun tartibiga yetarliça yuqori darajada jalb etilganligidan dalolat beradi.

3-jadval **Ayting-çi, siz mamlakatimizda yuz berayotgan yangiliklar va voqealar bilan qiziqasizmi?**
(OAVning muayyan turidan foydalanuvçilarning soni böyiça % hisobida)

	Foydalaniş				
	TV	Radio	Bosma/ elektron. naşrlar	Ijtimoiy tarmoq lar	Telegram
Ha, yangiliklarni muntazam kuzatib boraman	53,9	55,0	60,2	50,6	50,4
Ha, vaqti-vaqti bilan qiziqib turaman	31,6	29,1	24,6	30,5	30,5
Kamdan-kam, faqat eng muhim voqealarga qiziqaman	12,7	12,6	14,0	15,6	15,1
Deyarli qiziqmayman	1,8	3,2	1,3	3,3	4,0

ASOSIY XULOSA

Şunday qilib, özbekistonliklar uçun milliy axborot kun tartibiga muntazam yoki vaqti-vaqti bilan qiziqişning ustunligi xosdir. Şu bilan birga, yangiliklarni muntazam kuzatib borişga bölgan eng yaqqol qiziqiş erkaklar, 55 yoş va undan kattalar hamda bosma va elektron naşrlardan foydalanuvçilar uçun xosligi aniqlandi.

B.2 Mamlakatdagi yangiliklar haqidagi axborot manbalari va ulardan foydalaniş sabablari

171-jadval **Siz Telegramda qaysi turdagi kanallarga obuna bölgansiz?**

(javob berganlar soniga nisbatan, %) (n=1215)

	Yoş guruhlari				
	18-24	25-34	35-44	45-54	55 yoş va undan kattalar
Özbekiston yangiliklari kanallari	57,1	57,7	54,8	55,5	48,9
Xalqaro yangiliklar kanallari	35,0	26,5	22,6	25,2	25,3
Mintaqaviy va mahalliy yangiliklar kanallari	5,3	11,4	7,7	14,7	15,2
Davlat organlari va muassasalarining rasmiy kanallari	18,0	16,2	16,9	12,6	12,9
Mahalliy hokimiyat organlari va mahallalar kanallari	14,3	19,1	25,7	25,2	23,0
Gazeta, jurnal, telekanal va radiostansiyalar kanallari	4,9	3,7	3,4	5,0	6,2
Blogerlar va jamoatçilik fikri yetakçilarining kanallari	14,3	13,2	11,1	13,0	9,0
Tahliliy va ijtimoiy-siyosiy kanallar	12,0	5,5	5,4	5,0	4,5
Ta'limiy va ilmiy-ommabop kanallar	25,6	16,9	15,3	13,0	11,8
Oliy öquv yurtlari, maktablar va öquv markazlari kanallari	32,0	23,2	23,0	17,6	12,4
Böş iş örinlari va işga joylaşiş haqidagi kanallar	10,2	15,4	15,3	15,1	6,7
Kasbiy va tarmoq kanallari	18,8	16,9	13,8	11,3	5,6
Biznes va tadbirkorlik haqidagi kanallar	12,0	6,6	9,6	7,6	4,5
Moliya va moliyaviy savodxonlik haqidagi kanallar	4,5	5,1	1,5	2,1	3,4
Huquqiy axborot va qonunlar şarhi beriladigan kanallar	3,8	4,0	2,3	4,2	3,4
Salomatlik va tibbiyot haqidagi kanallar	8,6	13,6	12,6	17,2	18,5
Texnologiyalar, internet va sun'iy intellekt haqidagi kanallar	4,1	2,6	3,1	2,9	2,2
Madaniyat, adabiyot, san'at va tarix haqidagi kanallar	3,8	1,8	2,7	2,9	3,4
Diniy-ma'rifiy kanallar	2,6	1,1	1,1	2,9	5,1
Oila va farzand tarbiyasi haqidagi kanallar	2,6	8,8	11,5	9,2	9,0
Ayollar kanallari	7,5	10,3	10,0	10,9	16,3
Yoşlar kanallari	10,9	8,1	2,3	2,1	4,5
Sport kanallari	15,4	11,4	16,9	10,5	9,6
Sayyohlik kanallari	4,9	3,7	2,3	5,0	2,2
Köngiloçar va hajviy kanallar	3,8	4,4	6,9	7,1	3,9
Filmlar, seriallar va musiqa kanallari	12,0	8,5	7,7	7,1	4,5
Pazandaçilik, rözğor va turmuş tarzi haqidagi kanallar	9,0	7,0	11,5	11,3	5,6
Dökonlar, kompaniyalar, brendlar va xizmat körsatiş sohalari kanallari	5,6	8,8	7,7	7,6	3,4

	Yoş guruhlari				
	18-24	25-34	35-44	45-54	55 yoş va undan kattalar
E'lonlar, çegirmalar va reklama takliflari kanali	4,1	4,4	5,4	5,5	3,9
Obuna bölmaganman	1,1	4,0	6,5	6,7	14,6
Aytişim qiyin	0,0	1,8	1,9	2,1	2,8

**Respondentlar bir neçta javob variantini tanlaşi mumkin edi.*

Şahar va qişloq aholisi orasida ham Özbekiston yangiliklari kanallariga obuna böliş eng keng tarqalgan: buni şaharliklarning 56 foizi va qişloq respondentlarining 54,3 foizi qayd etgan. Qişloq aholisi mahalliy hokimiyat organlari va mahallalar kanallarini (23,2% va 19,5%), şuningdek, davlat organlari va muassasalarining rasmiy kanallarini (16% va 15,2%) birmunça köproq tanladi. Oliy ta'lim muassasalari, maktablar va öquv markazlari kanallari ham qişloq aholisi orasida köproq qayd etilgan (24,1% va 20,9%).

172-jadval **Siz Telegramda qaysi turdagi kanallarga obuna bölgansiz?**

(javob berganlar soniga nisbatan, %) (n=1215)

	Yaşaş joyi turi	
	Şahar	Qişloq
Özbekiston yangiliklari kanallari	56,0	54,3
Xalqaro yangiliklar kanallari	28,3	25,7
Mintaqaviy va mahalliy yangiliklar kanallari	9,9	11,1
Davlat organlari va muassasalarining rasmiy kanallari	15,2	16,0
Mahalliy hokimiyat organlari va mahallalar kanallari	19,5	23,2
Gazeta, jurnal, telekanal va radiostansiyalar kanallari	5,4	3,5
Blogerlar va jamoatçilik fikri yetakçilarining kanallari	12,4	12,3
Tahliliy va ijtimoiy-siyosiy kanallar	7,1	6,2
Ta'limiy va ilmiy-ommabop kanallar	17,3	16,5
Oliy öquv yurtlari, maktablar va öquv markazlari kanallari	20,9	24,1
Böş iş örinlari va işga joylaşiş haqidagi kanallar	12,5	13,4
Kasbiy va tarmoq kanallari	12,5	15,5
Biznes va tadbirkorlik haqidagi kanallar	7,9	8,8
Moliya va moliyaviy savodxonlik haqidagi kanallar	3,9	2,8
Huquqiy axborot va qonunlar şarhi beriladigan kanallar	3,6	3,5
Salomatlik va tibbiyot haqidagi kanallar	14,4	13,0
Texnologiyalar, internet va sun'iy intellekt haqidagi kanallar	3,4	2,6
Madaniyat, adabiyot, san'at va tarix haqidagi kanallar	2,8	3,0
Diniy-ma'rifiy kanallar	2,6	2,1
Oila va farzand tarbiyasi haqidagi kanallar	7,7	8,6
Ayollar kanallari	10,7	10,5
Yoşlar kanallari	5,3	6,3
Sport kanallari	12,8	13,2
Sayyohlik kanallari	4,2	3,2
Köngiloçar va hajviy kanallar	4,3	6,3

	Yaşaş joyi turi	
	Şahar	Qişloq
Filmlar, seriallar va musiqa kanallari	9,1	7,2
Pazandaçilik, rözğor va turmuş tarzi haqidagi kanallar	8,2	10,0
Dökonlar, kompaniyalar, brendlar va xizmat körsatiş sohalari kanallari	7,4	6,2
E'lonlar, çegirmalar va reklama takliflari kanali	4,3	5,1
Obuna bölmaganman	5,4	6,7
Aytişim qiyin	1,2	2,1

G.3 Telegramdan foydalanişdagi muammolar

Sörov iştirokçilarining javoblari Telegram foydalanuvçilari, asosan, işonçsiz axborot, bezor qiluvçi reklama va spam, şuningdek, firibgarlik xabarlari hamda keraksiz bildirişnomalarga duç kelişini körsatdi. Eng keng tarqalgan muammo işonçsiz yoki tekşirilmagan axborot bölib, uni 35,1 foiz respondent qayd etgan. Bezor qiluvçi reklama va spamni 31,6 foiz, haddan taşqari tez-tez keladigan va e'tiborni çalğituvçi bildirişnomalarni 26,9 foiz iştirokçi körsatgan. Yana 24,4 foiz firibgarlik xabarlari va takliflariga, 23,2 foiz soxta internet-dökonlar va sotuvçilarga duç kelgan.

Zararli fayllar, ilovalar yoki dasturlarni 20,5 foiz, soxta akkauntlar va avtomatlaştirilgan botlarni 13,1 foiz, akkauntni buziş yoki buzişga urinişlarni 9,7 foiz iştirokçi qayd etgan. Guruh yoki kanallarga roziliksiz qöşib qöyilişini 12,9 foiz respondent körsatgan. Bundan taşqari, 9,4 foiz axborot muallifi yoki dastlabki manbasini aniqlaşdagi qiyinçiliklarni, 8,0 foiz manipulyativ naşrlar va çalğituvçi sarlavhalarni tilga olgan.

Erkaklar ayollarga nisbatan işonçsiz yoki tekşirilmagan axborotni (38,9% va 31,4%), bezor qiluvçi reklama va spamni (34,2% va 29,1%), zararli fayl hamda dasturlarni (22,2% va 18,8%) köproq qayd etgan. Ular akkauntni buziş yoki buzişga uriniş (11,3% va 8,2%), soxta vakansiyalar, yutuqli öyinlar yoki investitsiya takliflari (10,3% va 7,6%) haqida ham birmunça köproq xabar bergan.

Ayollar esa erkaklarga nisbatan guruh yoki kanallarga roziliksiz qöşib qöyilişini (16,4% va 9,3%), soxta internet-dökon va sotuvçilarni (24,2% va 22,2%), şuningdek, köp sonli xabarlar orasidan kerakli axborotni topiş qiyinligini (5,5% va 3,7%) köproq qayd etgan.

Alohida ta'kidlaş joizki, sörov iştirokçilarining 11,5 foizi sönggi vaqtlarda sanab ötilgan muammolarga duç kelmaganini bildirgan. Ayollar orasida bu körsatkiç 13,4%, erkaklarda 9,6%ni taşkil etdi.

173-jadval **Siz sönggi vaqtlarda Telegramda qanday muammolarga duç keldingiz?**

(javob berganlar soniga nisbatan, %) (n=1215)

	Umuman tanlov böyiça	Jinsi	
		Erkaklar	Ayollar
Manipulyatsiya qiluvçi postlar va çalğituvçi sarlavhalar	**35,1**	38,9	31,4
Muallifni yoki axborotning asl manbasini aniqlaşdagi qiyinçiliklar	**8,0**	9,4	6,6
Köp takrorlanuvçi xabarlar va köçirib bosişlar	**9,4**	9,9	8,9
Kanallar soni köpligi sababli axborot yuklamasining ortişi	**19,5**	21,0	18,0
Juda tez-tez keladigan va çalğitadigan bildirişnomalar	**9,2**	7,7	10,6
Bezor qiluvçi reklama va spam	**26,9**	26,6	27,2
Guruh yoki kanallarga istalmagan holda qöşilib qoliş	**31,6**	34,2	29,1
Firibgarlik xabarlari va takliflar	**12,9**	9,3	16,4
Soxta internet-dökonlar va sotuvçilar	**24,4**	24,4	24,5
Soxta vakansiyalar, yutuqli öyinlar yoki investitsiya takliflari	**23,2**	22,2	24,2
Fişing havolalari va şaxsga oid ma'lumotlarni qölga kiritişga urinişlar	**8,9**	10,3	7,6
Zararli fayllar, ilovalar yoki dasturlar	**1,6**	1,9	1,3
Akkauntni buzib kiriş yoki buzişga urinişlar	**20,5**	22,2	18,8
Boşqa şaxs nomidan soxta akkauntlar yaratiş	**9,7**	11,3	8,2
Şaxsga oid ma'lumotlarning roziliksiz sizib çiqişi yoki tarqatilişi	**3,0**	2,2	3,9
Soxta akkauntlar va avtomatik botlar	**1,4**	1,7	1,1
Guruhlar va izohlardagi haqoratlar, ta'qiblar yoki tahdidlar	**13,1**	13,6	12,6
Kanallar va blogerlar postlaridagi yaşirin reklama	**1,1**	0,7	1,4
Boşqalarning materiallarini manbani körsatmasdan tarqatiş	**1,3**	1,3	1,3
Köplab xabarlar orasidan kerakli axborotni topişdagi qiyinçiliklar	**0,7**	0,2	1,1
Texnik uzilişlar, sekin yuklaniş yoki aloqadagi muammolar	**4,6**	3,7	5,5
Akkaunt, guruh yoki kanalning çeklanişi yoki bloklanişi	**5,6**	5,4	5,8
Boşqa	**2,8**	2,0	3,5
Duç kelmaganman	**11,5**	9,6	13,4
Aytişim qiyin	**4,1**	4,0	4,2

**Respondentlar beştagaça javob variantini tanlaşi mumkin edi.*

Sörov iştirokçilarining javoblari barça yoş guruhlarida Telegramdan foydalanişning eng keng tarqalgan muammolari işonçsiz axborot, bezor qiluvçi reklama va spam hamda firibgarlik xabarlari ekanini körsatdi. Biroq ayrim qiyinçiliklarning xususiyati yoşga qarab farqlanadi.

Işonçsiz yoki tekşirilmagan axborotni 18–24 yoşlilar (38,7%) va 45–54 yoşlilar (37,4%) köproq qayd etgan. 25–34 yoşlilarda bu körsatkiç 36,0%, 35–44 yoşlilarda 31,0%, 55 yoş va undan kattalarda 30,9%ni taşkil etdi. Bezor qiluvçi reklama va spam 35–44 yoşlilarni (36,4%) köproq bezovta qiladi; boşqa yoş guruhlarida uşbu javob uluşi 28,7–31,2% oraliğida. Firibgarlik xabarlari va takliflariga barça yoş guruhlarida söralganlarning taxminan törtdan biri duç kelgan: 55 yoş va undan kattalarda 21,9%dan 25–44 yoşlilarda 25,7%gaça.

Bildirişnomalar va takroriy xabarlarga munosabatda yoşga oid sezilarli farqlar bor. Haddan taşqari köp va e'tiborni çalğituvçi bildirişnomalarni 18–24 yoşli yoşlar (32,0%) eng köp qayd etgan, 55 yoş va undan kattalarda esa bu körsatkiç 20,2%ga pasaydi. Takroriy naşrlar va qayta e'lonlar 45–54 yoşlilarni (26,5%) boşqa guruhlarga nisbatan köproq bezovta qiladi. Axborot muallifi yoki dastlabki manbasini aniqlaşdagi qiyinçiliklarni ham yoşlar köproq körsatgan: 18–24 yoşlilarda 12,4%, 25–34 yoşlilarda 11,0%, 55 yoş va undan kattalarda 6,2%.

Raqamli xavfsizlik bilan boğliq javoblarda yanada yaqqol farqlar kuzatiladi. Zararli fayl, ilova yoki dasturlarni 18–24 yoşli iştirokçilarning 30,8 foizi qayd etgan. Bu körsatkiç 25–34 yoşlilarda 21,7%, 35–44 yoşlilarda 21,1%, 45–54 yoşlilarda 15,1%, 55 yoş va undan kattalarda 9,6%ni taşkil etdi. Soxta akkaunt va avtomatlaştirilgan botlarga duç kelişda ham öxşaş tendensiya kuzatildi: 18–24 yoşlilarda 16,9%, 25–34 yoşlilarda 16,2%, 45 yoşdan kattalarda esa 8,8%dan oşmaydi. Akkauntni buziş yoki buzişga urinişni yoş iştirokçilarning 13,5 foizi, 45–54 yoşlilarning 5,9 foizi va 55 yoş hamda undan kattalarning 6,2 foizi qayd etgan.

Yoş iştirokçilar guruh yoki kanallarga roziliksiz qöşib qöyilişini ham köproq qayd etişdi: 18–24 yoşlilarda 17,7%, 55 yoş va undan kattalarda 7,3%. Soxta internet-dökonlar va sotuvçilar 18–24 yoşlilarda (26,3%) va 25–34 yoşlilarda (24,3%) köproq xavotir uyğotadi. Soxta vakansiya, yutuqli öyin va investitsiya takliflari 25–34 (12,9%) va 18–24 yoşlilar (10,9%) tomonidan köproq qayd etilgan. Natijalar yoş iştirokçilar turli raqamli xavflar va nomaqbul faoliyatga duç keliş holatlari haqida köproq xabar berganini körsatdi. Sanab ötilgan muammolarga duç kelmaganlar uluşi ham e'tiborga loyiq: 18–24 yoşlilarda 5,3%, 25–34 yoşlilarda 7,0%, 35–54 yoşlilarda taxminan 13%, 55 yoş va undan kattalarda 23%.

174-jadval **Siz sönggi vaqtlarda Telegramda qanday muammolarga duç keldingiz?**

(javob berganlar soniga nisbatan, %) (n=1215)

	Yoş guruhlari				
	18-24	25-34	35-44	45-54	55 yoş va undan kattalar
Manipulyatsiya qiluvçi postlar va çalğituvçi sarlavhalar	38,7	36,0	31,0	37,4	30,9
Muallifni yoki axborotning asl manbasini aniqlaşdagi qiyinçiliklar	9,0	8,5	6,5	7,1	9,0
Köp takrorlanuvçi xabarlar va köçirib bosişlar	12,4	11,0	8,4	7,6	6,2
Kanallar soni köpligi sababli axborot yuklamasining ortişi	19,5	15,8	19,2	26,5	16,3

	Yoş guruhlari				
	18-24	25-34	35-44	45-54	55 yoş va undan kattalar
Juda tez-tez keladigan va çalğitadigan bildirişnomalar	8,3	9,9	8,8	8,8	10,7
Bezor qiluvçi reklama va spam	32,0	26,5	25,3	28,6	20,2
Guruh yoki kanallarga istalmagan holda qöşilib qoliş	31,2	30,1	36,4	30,7	28,7
Firibgarlik xabarlari va takliflar	17,7	14,7	9,6	13,4	7,3
Soxta internet-dökonlar va sotuvçilar	24,8	25,7	25,7	23,1	21,9
Soxta vakansiyalar, yutuqli öyinlar yoki investitsiya takliflari	26,3	24,3	20,7	24,4	19,1
Fişing havolalari va şaxsga oid ma'lumotlarni qölga kiritişga urinişlar	10,9	12,9	6,9	7,6	4,5
Zararli fayllar, ilovalar yoki dasturlar	4,5	0,7	0,8	0,8	0,6
Akkauntni buzib kiriş yoki buzişga urinişlar	30,8	21,7	21,1	15,1	9,6
Boşqa şaxs nomidan soxta akkauntlar yaratiş	13,5	10,7	10,7	5,9	6,2
Şaxsga oid ma'lumotlarning roziliksiz sizib çiqişi yoki tarqatilişi	4,5	1,8	3,8	1,3	3,9
Soxta akkauntlar va avtomatik botlar	3,4	1,1	0,8	0,4	1,1
Guruhlar va izohlardagi haqoratlar, ta'qiblar yoki tahdidlar	16,9	16,2	13,4	8,8	7,9
Kanallar va blogerlar postlaridagi yaşirin reklama	0,8	1,1	0,0	2,1	1,7
Boşqalarning materiallarini manbani körsatmasdan tarqatiş	0,4	1,5	2,3	0,0	2,8
Köplab xabarlar orasidan kerakli axborotni topişdagi qiyinçiliklar	0,4	0,7	0,0	0,8	1,7
Texnik uzilişlar, sekin yuklaniş yoki aloqadagi muammolar	5,6	4,4	4,6	4,2	3,9
Akkaunt, guruh yoki kanalning çeklanişi yoki bloklanişi	6,8	5,1	6,1	4,2	5,6
Boşqa	3,8	3,3	3,8	2,1	0,0
Duç kelmaganman	5,3	7,0	13,0	13,4	23,0
Aytişim qiyin	1,5	2,9	4,6	5,5	7,3

**Respondentlar beştagaça javob variantini tanlaşi mumkin edi.*

Telegramdan foydalanişdagi muammolar mintaqalar kesimida farqlanadi. Eng keng tarqalgan muammo işonçsiz yoki tekşirilmagan axborot bölib qolmoqda. Uşbu körsatkiç Qoraqalpoğiston Respublikasida (47,8%), Surxondaryo (45,8%) va Namangan (40,2%) viloyatlarida eng yuqori. Eng past uluş Toşkent (23,3%), Qaşqadaryo (27,8%) va Sirdaryo (29,5%) viloyatlarida kuzatilgan. Bezor qiluvçi reklama va spamni Telegram muammosi sifatida Farğona viloyati respondentlari köproq qayd etgan (38,3%). Şuningdek, mazkur muammo Namangan va Samarqand viloyatlarida 36,8 foizdan qayd etilgan. Toşkent viloyati va Toşkent şahrida bu körsatkiç 25,6%dan, Qaşqadaryo viloyatida 24,1%ni taşkil etdi. Haddan taşqari tez-tez keladigan va e'tiborni çalğituvçi bildirişnomalar Qoraqalpoğiston Respublikasi (37,8%), Andijon (33,0%), Navoiy (33,7%) va Buxoro (32,5%) viloyatlari iştirokçilarini köproq bezovta qiladi.

Firibgarlik mazmunidagi xabarlar va takliflar Qoraqalpoğiston Respublikasi (31,1%), Samarqand (28,7%), Farğona (27,7%) va Namangan (26,4%) viloyatlarida nisbatan köproq qayd etilgan. Surxondaryo viloyatida bu körsatkiç 18,1%ni, Qaşqadaryo viloyatida 19,0%ni taşkil etgan. Soxta internet-dökonlar va sotuvçilar Qoraqalpoğiston Respublikasi (50,0%), Jizzax (36,3%) va Samarqand (32,2%) viloyatlaridagi foydalanuvçilarni köproq taşvişlantirgan.

Sanab ötilgan muammolarga duç kelmagan iştirokçilar uluşi ham mintaqalar böyiça farq qiladi. Eng yuqori körsatkiçlar Xorazm (27,8%) va Namangan (24,1%) viloyatlarida qayd etilgan; Qaşqadaryo viloyatida u 17,7%ni taşkil etgan. Şu bilan birga, Andijon viloyatida uşbu javobni iştirokçilarning 11,0 foizi, Buxoro viloyatida 7,2 foizi, Farğona viloyatida esa 6,4 foizi tanlagan.

175-jadval **Siz sönggi vaqtlarda Telegramda qanday muammolarga duç keldingiz?**
(javob berganlar soniga nisbatan, %) (n=1215)

	Yaşaş joyi turi	
	Şahar	Qişloq
Manipulyatsiya qiluvçi postlar va çalğituvçi sarlavhalar	33,3	37,1
Muallifni yoki axborotning asl manbasini aniqlaşdagi qiyinçiliklar	8,0	7,9
Köp takrorlanuvçi xabarlar va köçirib bosişlar	9,9	8,8
Kanallar soni köpligi sababli axborot yuklamasining ortişi	18,1	21,1
Juda tez-tez keladigan va çalğitadigan bildirişnomalar	9,1	9,3
Bezor qiluvçi reklama va spam	26,2	27,8
Guruh yoki kanallarga istalmagan holda qöşilib qoliş	28,0	35,7
Firibgarlik xabarlari va takliflar	11,6	14,4
Soxta internet-dökonlar va sotuvçilar	22,6	26,5
Soxta vakansiyalar, yutuqli öyinlar yoki investitsiya takliflari	22,3	24,3
Fişing havolalari va şaxsga oid ma'lumotlarni qölga kiritişga urinişlar	9,3	8,4
Zararli fayllar, ilovalar yoki dasturlar	1,9	1,2
Akkauntni buzib kiriş yoki buzişga urinişlar	21,7	19,2
Boşqa şaxs nomidan soxta akkauntlar yaratiş	10,7	8,6
Şaxsga oid ma'lumotlarning roziliksiz sizib çiqişi yoki tarqatilişi	3,4	2,6
Soxta akkauntlar va avtomatik botlar	1,2	1,6
Guruhlar va izohlardagi haqoratlar, ta'qiblar yoki tahdidlar	13,2	13,0
Kanallar va blogerlar postlaridagi yaşirin reklama	1,1	1,1
Boşqalarning materiallarini manbani körsatmasdan tarqatiş	1,1	1,6
Köplab xabarlar orasidan kerakli axborotni topişdagi qiyinçiliklar	0,8	0,5
Texnik uzilişlar, sekin yuklaniş yoki aloqadagi muammolar	4,5	4,7
Akkaunt, guruh yoki kanalning çeklanişi yoki bloklanişi	4,8	6,5
Boşqa	1,7	4,0
Duç kelmaganman	11,3	11,8
Aytişim qiyin	3,6	4,7

**Respondentlar beştagaça javob variantini tanlaşi mumkin edi.*

Yaşaş joyi turi kesimida har ikki guruh uçun eng keng tarqalgan muammo işonçsiz yoki tekşirilmagan axborot hisoblanadi. Buni qişloq aholisining 37,1 foizi va şaharliklarning 33,3 foizi qayd etgan. Qişloq iştirokçilari orasida bezor qiluvçi reklama va spamdan şikoyatlar (35,7% va 28%), firibgarlik xabarlari va takliflari (26,5% va 22,6%) nisbatan köproq uçraydi. Akkauntni buziş yoki buzişga urinişni şaharliklarning 10,7 foizi va qişloq aholisining 8,6 foizi qayd etgan. Sanab ötilgan muammolarga duç kelmaganlar uluşi deyarli bir xil: qişloq aholisida 11,8%, şaharliklarda 11,3%.



Tadqiqot xulosalari

Mediaiste'molning umumiy tendensiyalari

1. Tadqiqot natijalari fuqarolarning mamlakatdagi yangiliklarga muntazam (50,4%) va vaqti-vaqti bilan (30,4%) qiziqiş bildirişini körsatdi. Mamlakatdagi voqealar haqida axborot olişning asosiy manbalari Telegram-kanallar (51,6%), televideniye (44,6%), ijtimoiy tarmoqlar (41,6%), YouTube va videobloglar (31,3%), internet-naşrlar va yangiliklar saytlari (30,0%) hisoblanadi. Uşbu manbalarni tanlaşda axborotning tezkor yetkazilişi (48,6%), manbaga bölgan işonç (31,3%), istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalaniş imkoniyati (31%), axborot taqdim etiş şaklining qulayligi (30,9%) hamda bepul foydalaniş imkoniyati (24,1%) muhim ahamiyat kasb etadi.
2. Sörov iştirokçilari uçun Özbekistondagi (56%), xalqaro (40%), mahalliy yoki viloyat miqyosidagi (22%) voqealar, davlat boşqaruvi va siyosat (21,7%), ta'lim va fan (20,7%), soğliqni saqlaş (17,6%) mavzulari katta qiziqiş uyğotişi aniqlandi. Şu bilan birga, respondentlarni Özbekistonga oid umummilliy axborot (69,2%), dunyo voqealari (51,2%), öz mahallasi (44,3%), viloyati (24,7%), şuningdek, tumani va şahri (23,9%) haqidagi axborotlar köproq qiziqtiradi.
3. Sörov iştirokçilarining fikriça, ommaviy axborot vositalarida narx-navo, daromadlar, bandlik va ijtimoiy qöllab-quvvatlaş (41,3%), aholining ehtiyojlari (40,6%), soğliqni saqlaş (23%), qonunçilik va fuqarolar huquqlari (22%), davlat xizmatlari (18%), ta'lim va fan (16%), ekologiya va atrof-muhit (13,6%) mavzulari böyiça axborotlar yetişmaydi.
4. Tadqiqot natijalariga köra, respondentlar axborot taqdim etiş şakllari orasida yangiliklar dasturlari (48,8%), qisqa yangiliklar va dayjestlar (41,7%), köngiloçar televizion körsatuvlar (24,2%), qisqa videolar — rilslar (22%), batafsil tahliliy materiallar (21,5%), jonli efirlar (17,4%), videoreportajlar (17,1%), oddiy insonlarning hayotiy hikoyalari (14,7%), hujjatli filmlar (14,1%), intervyu va tok-şoularni (12%) afzal köradi.

5. Sörov natijalari axborot olişda davlat tili ustuvor örin tutişini körsatdi. Respondentlarning aksariyati OAV axborotlarini özbek tilida kirill yozuvida öqişni afzal köradi (71,7%). Qariyb yarmi özbek tilida lotin yozuvidagi axborotni tanlagan (49,8%). Rus tili ham axborot olişda talab yuqori bölgan tillardan biri sifatida qayd etilgan (43,3%).
6. Tahlil Özbekiston aholisining mamlakatda OAV rivojlanişidan qoniqiş darajasi umuman olganda yuqori ekanini körsatdi (65,3%). Respondentlar fikriça, OAV, avvalo, axborot beriş va ijtimoiy jarayonlarga ta'sir körsatiş vazifalarini bajaradi: aholini voqea-hodisalardan xabardor qiladi (52,7%), davlat islohotlari va taşabbuslarini yoritadi (25,1%), jamoatçilik fikrini şakllantiradi (45%), davlat va fuqarolar örtasida boğlovçi böğin vazifasini bajaradi, fuqarolik faolligi hamda huquqiy savodxonlikni oşirişga xizmat qiladi (31,6%).
7. Tadqiqotga köra, fuqarolar eng köp işonadigan axborot manbalari televideniye (44,3%), davlat organlarining rasmiy saytlari (17,3%), Telegram-kanallar (11,3%), internet-naşrlar va yangiliklar saytlari (7,4%), ijtimoiy tarmoqlar (6,7%), YouTube va videobloglar (5,4%) hisoblanadi. Şu bilan birga, respondentlarning 65,9 foizi mamlakat OAVga töliq yoki qisman işonç bildirgan. Yoş ortişi bilan televideniyega işonç darajasi ösib bordi: 18–24 yoşdagilar orasida 23,1 foizdan 55 yoş va undan kattalar orasida 70,6 foizgaça. Aksinça, aksariyat raqamli manbalarga işonç yoş ulğaygani sari kamaydi.
8. Sörov natijalariga köra, iştirokçilarning katta qismi işonçsiz yoki çalğituvçi axborotlarga juda tez-tez (13,9%), yetarliça tez-tez (13,7%), ba'zan (33,7%) yoxud kamdan-kam (27,6%) duç kelişini bildirgan. Respondentlar işonçsiz va yolğon axborot tarqalişini köproq YouTube va videobloglar (50,1%), Telegram-kanallar (44%), ijtimoiy tarmoqlar (38,4%), şuningdek, internet-naşrlar va yangiliklar saytlari bilan boğlagan. Iştirokçilarning 77,4 foizi OAVda yolğon axborot tarqatganlik uçun jazoni kuçaytiriş zarur, deb hisoblaydi.
9. Tadqiqotda Özbekistonda söz erkinligi va OAV mustaqilligi darajasiga berilgan baholar, asosan, ijobiy böldi. Respondentlarning 49,7 foizi jurnalistlar öz fikrini erkin ifoda etişi va istalgan mavzuni yoritişi mumkinligini qayd etgan. Şu bilan birga, 41,3 foizi jurnalistlarning kasbiy faoliyatini amalga oşirişi uçun yaratilgan şaroitlarni töliq yetarli, deb baholagan.
10. Respondentlarning fikriça, OAV faoliyatidagi dolzarb muammolar qatoriga yolğon yangiliklar tarqalişi (46,6%), xolislik va beğarazlikning yetarli emasligi (33,1%), davlat organlari oçiqligining yetarli emasligi (30,6%), jurnalistlarning axborotdan foydalaniş imkoniyatlari çeklanganligi (27,4%), ularning kasbiy tayyorgarligi yetarli darajada emasligi (20,4%) hamda tahliliy materiallar taqçilligi (20,3%) kiradi.
11. Sörov natijalariga köra, respondentlarning aksariyati davlat axborotning işonçliligini nazorat qilişi kerak, deb hisoblaydi (75,9%). Iştirokçilarning 18,2 foizi esa OAV faoliyatini davlat tomonidan tartibga soliş xavfsizlik va axloq masalalari bilan qisman çeklanişi lozimligi tarafdori böldi.
12. OAV mustaqilligini oşirişning asosiy çoralari sifatida respondentlar söz erkinligining huquqiy kafolatlarini mustahkamlaş (56,5%), jurnalistlarning kasbiy tayyorgarligini kuçaytiriş (30,7%) hamda ularning davlat organlari axborotlaridan foydalaniş imkoniyatlarini kengaytirişni (27%) körsatgan.

Televideniye

13. Tadqiqot natijalariga köra, sörov iştirokçilarining 67,5 foizi televizion kontent tomoşa qiladi, 32,5 foizi esa qurilma va kontentdan foydalaniş usulidan qat'i nazar televizion kanallarni körmaydi. Yoş böyiça sezilarli farqlar kuzatildi: televideniye tomoşa qiliş katta yoş guruhlariga köproq xos, yoşlar orasida esa televizion kontent iste'mol qiladiganlar uluşi pastroq.
14. Sörovga köra, iş kunlari televideniye tomoşa qilişning eng keng tarqalgan davomiyligi 30 daqiqadan ikki soatgaça, dam oliş kunlarida esa bir soatdan ikki soatgaça bölgan vaqtni taşkil etadi. Şahar va qişloq aholisi körsatkiçlari umuman öxşaş bölsa-da, şaharliklar orasida iş kunlari ikki soatdan, dam oliş kunlarida esa uç soatdan ortiq televideniye tomoşa qiluvçilar uluşi birmunça yuqoriroq.
15. Tadqiqot televideniye tomoşa qilişning asosiy joyi uy ekanini körsatdi. Şu bilan birga, yoş guruhlarda televizion kontentni körişning muqobil usullari, jumladan, yölda smartfon va planşetlardan foydalaniş nisbatan köproq uçraydi. Demak, uy şaroitida tomoşa qiliş yetakçi örinni saqlab qolmoqda, yoş iştirokçilar esa turli qurilmalar va kontentga kirişning muqobil usullaridan faolroq foydalanadi.
16. Tadqiqot televizion kontentni tanlaşning ikki usuli ustuvorligini aniqladi: qiziqarli körsatuv izlab kanallarni almaştiriş va muayyan dasturni oldindan tanlaş. Yoş respondentlar internet orqali alohida videosyujetlarga birmunça köproq murojaat qiladi, 35 yoşdan kattalarda esa kanallarni almaştirib qiziqarli kontentni mustaqil izlaşga moyillik yuqoriroq. Şunday qilib, auditoriya qiziqarli kontentni tasodifiy izlaş bilan dasturlarni maqsadli tanlaşni birgalikda qöllaydi; bu afzalliklar yoşga qarab farqlanadi.
17. Milliy telekanallar aholining televizion afzalliklari tarkibida muhim örin tutişda davom etmoqda. Eng köp tomoşa qilinadigan kanallar qatorida Milliy TV, O'zbekiston 24, Zo'r TV va Sevimli TV ajralib turadi. Bu davlat va nodavlat telekanallarga talab mavjudligini körsatadi. Afzalliklar jins va yoşga boğliq: erkaklar sport kanallarini, ayollar esa Milliy TV va Sevimli TVni köproq tanlaşdi. O'zbekiston 24 katta yoşli respondentlar orasida ayniqsa keng tomoşa qilinadi. Natijalar milliy telekanallar ahamiyati saqlanayotganini, biroq muayyan kanallarni tanlaşda ijtimoiy-demografik farqlar mavjudligini körsatdi.
18. Tadqiqot natijalariga köra, telekanal tanlaşda dasturlar mazmuni asosiy mezon hisoblanadi; auditoriyaning mavzuga oid afzalliklari esa jins va yoşga qarab farqlanadi. Sörov iştirokçilari, avvalo, dasturning qiziqarli mazmuni, yangiliklarning dolzarbligi va oilaviy tomoşa qiliş imkoniyatiga e'tibor qaratadi. Yangiliklar erkaklar va ayollar orasida eng talabgir televizion kontent turi bölib qolmoqda. Erkaklar sport, axborot hamda tarixiy-madaniy dasturlarni, ayollar esa oila va salomatlikka oid körsatuvlar, milliy film va seriallar, bolalar uçun kontentni köproq tanlaydi. Katta yoşdagilarda ma'rifiy dasturlar va milliy kinematografiyaga qiziqiş yuqoriroq bölsa, yoşlar axborotning işonçliligi, intervyu va munozaralarga köproq e'tibor qaratadi.
19. Tadqiqot natijalari O'zbekiston 24 telekanali turli jins, yoş va hudud guruhlarida işonç darajasi böyiça yetakçi örin tutişini körsatdi. Boşqa telekanallarga işonçda hududiy va yoşga oid xususiyatlar mavjud: yoşlar Zo'r TV va Milliy TVni, katta yoşdagilar O'zbekiston va Mahallani

nisbatan köproq qayd etişdi. Mintaqalar kesimida Samarqand viloyatida Milliy TV, Qoraqalpoğiston Respublikasida Yoshlar, Toşkent viloyati va boşqa ayrim Mintaqalarda Zo'r TV hamda Sevimli TV ajralib turadi. Umuman olganda, O'zbekiston 24 işonç darajasi böyiça eng mustahkam mavqeni saqlab qolgan.

20. Tadqiqot iştirokçilari televizion kontentning asosiy muammolari sifatida körsatuvlarning bir xilligi va takrorlanişi, reklamalarning haddan taşqari köpligi, milliy film va seriallar sifati bilan boğliq masalalarni körsatgan. Erkaklar qiziqarli kontent, işonçli axborot, tahliliy dasturlar va fikrlar xilma-xilligi yetişmasligini köproq qayd etişdi. Ayollar reklama, milliy film va seriallar, bolalar va yoşlarga möljallangan kontentga e'tibor qaratişdi. Qişloq aholisi televizion dasturlarning sifati va xilma-xilligini, jumladan, ma'rifiy körsatuvlar va mintaqalar hayotiga oid kontentni yaxşilaş zarurligini köproq ta'kidladi.
21. Şunday qilib, televideniye sörov iştirokçilari uçun yangiliklar va qiziqarli dasturlar manbasi sifatida öz ahamiyatini saqlab qolmoqda. Asosiy tendensiyalar qatoriga katta yoş guruhlari orasida televideniye tomoşa qilişning keng tarqalganligi, uy şaroitida tomoşa qilişning ustuvorligi, yangiliklarga talab yuqoriligi va O'zbekiston 24 telekanaliga bildirilgan işonç kiradi. Şu bilan birga, milliy film va seriallar sifatini oşiriş, ma'rifiy va bolalar dasturlarini rivojlantiriş, reklama hajmini kamaytiriş, aholining dolzarb muammolarini kengroq yoritişga ehtiyoj aniqlandi.
22. Umuman olganda, tadqiqot natijalari Özbekistonda axborot sohasi va milliy televideniyeni rivojlantiriş böyiça amalga oşirilayotgan siyosat televideniyening auditoriya uçun ahamiyati saqlanayotganida, milliy telekanallarga talab va ayrim axborot manbalariga işonç mavjudligida öz ifodasini topayotganini körsatdi. Şu bilan birga, sörov iştirokçilarining afzalliklari televizion kontent sifatini yanada oşiriş, dasturlar mavzularini xilma-xillaştiriş, milliy kinematografiyani takomillaştiriş hamda aholining turli guruhlari axborot va madaniy ehtiyojlarini tölaroq inobatga oliş zarurligini körsatadi.

Radio

23. Tadqiqot doirasida radio tinglaş respondentlarning nisbatan kiçik qismiga xos ekani, bu borada jins va yoş böyiça tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Umumiy tanlovda radio tinglamaydiganlar ustunlik qiladi — ularning uluşi 78,1 foizni taşkil etdi. Radiotinglovçilar esa 21,9 foizni taşkil qildi. Erkaklar orasida radio tinglovçilar uluşi ayollarnikidan yuqoriroq. Eng yuqori körsatkiç 35–44 yoşdagilarda (26,9%), eng past körsatkiç esa 18–24 yoşlilar orasida (16,7%) qayd etildi.
24. Radiotinglovçilar orasida mediaiste'molning bir qator xususiyatlari aniqlandi. 35–44 yoş guruhidagi respondentlarning 58,4 foizi radioni kuniga bir neça marta tinglaydi. Radio tinglaşning asosiy vaqti ertalabki soatlarga — 09:00gaça va 09:00dan 12:00gaça bölgan davrga töğri keladi. 18:00dan 21:00gaça bölgan keçki vaqt ham salmoqli örin tutadi. 55 yoş va undan katta tinglovçilarning 51,7 foizi radioni ertalab tinglaşni afzal köradi.
25. Radio tinglaydigan sörov iştirokçilari uçun asosiy tinglaş joylari uy va avtomobil hisoblanadi. Ayollarning 52,9 foizi, 55 yoş va undan katta tinglovçilarning 68,2 foizi uyda radio tinglaşni

tanlaydi. Avtomobilda radio tinglaşni erkaklarning 49,7 foizi va 25–44 yoşli iştirokçilar köproq qayd etgan. Şuningdek, respondentlarning 41,4 foizi uy işlari davomida, 30,7 foizi dam oliş vaqtida radioni yoqadi. Kontentni qabul qiliş usuli böyiça tanlangan dasturlarni diqqat bilan tinglaş ustuvor (42,1%). Biroq 21,4 foiz alohida ruknlarni kuzatişni, 18,8 foiz esa qiziqarli dastur izlab radiostansiyalarni almaştirişni afzal köradi.

26. Sörov iştirokçilarining javoblari asosan bir neçta radiostansiya atrofida jamlangan bölsa-da, ularga bölgan talab jins va yoşga qarab farqlanadi. Umumiy tanlovda respondentlarning 38,2 foizi eng köp Vodiy Sadosi radiostansiyasini tinglaydi. Yoshlar radiostansiyasi ayollarning 37,2 foizi va 55 yoşdan katta tinglovçilarning 48,3 foizi orasida ajralib turadi. O'zbekiston 24 radiostansiyasi 18–24 yoşli respondentlar tomonidan ham tilga olingan. Mahalla radiostansiyasi ham eng köp qayd etilganlar qatoriga kiradi, ayniqsa ayollar (34,5%) va 55 yoş va undan kattalar (44,8%) orasida.

27. Radiostansiya tanlaşning asosiy sabablari musiqiy format (radio tinglovçilarning 64,4 foizi), sevimli qöşiq va ijroçilarning tez-tez yangraşi (38,5%), yangiliklarning dolzarbligi (42,7%) va işonçli axborot taqdim etilişi (26,2%) bilan boğliq. 18–24 yoşli respondentlarning 74,5 foizida musiqiy formatga qiziqiş ayniqsa yuqori. Katta yoş guruhlari vakillari esa dolzarb yangiliklarni (53,4%) va sevimli ijroçilar qöşiqlarining muntazam yangraşini (50,0%) köproq qayd etadi.

28. Umuman olganda, tadqiqot radio sörov iştirokçilarining mediaiste'molida nisbatan çeklangan örin tutişini körsatdi: aksariyat respondentlar radiostansiya va radiodasturlarni tinglamaydi. Radiodan foydalanuvçilar orasida tinglaş asosan kundalik vaziyatlar — uyda böliş, avtomobilda harakatlaniş va rözğor işlarini bajariş bilan boğliq. Eng xos vaqt oraliği ertalabki soatlar, radiostansiya tanlaşning asosiy sabablari esa musiqiy format va dasturlarning, şu jumladan yangiliklar hamda axborotning mazmunidir.

Bosma va onlayn-matbuot

29. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bölişiça, respondentlarning aksariyati bosma va onlayn-matbuotni öqimaydi (71,7%). Uşbu axborot manbalaridan foydalanuvçilar uluşi 28,3 foizni taşkil etdi. Ular orasida 38,8 foiz faqat elektron formatni, 32,6 foiz bosma formatni afzal köradi, 28,6 foiz esa har ikkisidan foydalanadi. Demak, bosma va onlayn-matbuot aholini nisbatan kamroq qamrab oladi. Şu bilan birga, matbuot öquvçilari orasida elektron format birmunça ustun bölib, bosma va onlayn-naşrlarni tanlaş yoşga qarab farqlanadi.

30. Sörov natijalariga köra, matbuot öqiydigan iştirokçilarning aksariyati unga har kuni murojaat qiladi (55,9%): 34,8 foizi kuniga bir neça marta, 21,1 foizi kuniga bir marta. Iş kunlari öquvçilarning 71,9 foizi matbuotga bir soatdan ortiq bölmagan vaqt ajratadi. Dam oliş kunlari bir soatdan ikki soatgaça öquvçilar uluşi 18,8 foizdan 26,1 foizgaça oşadi. Asosiy öqiş joyi uy (80,5%), eng köp qayd etilgan vaqt esa 18:00–21:00 (35,6%) va 21:00–24:00 (31,8%) oraliqlaridir. Bosma naşrlar asosan kiosk va dökonlardan xarid qilinadi (42,6%) yoki obuna orqali olinadi (32%). Onlayn-matbuotga kiriş uçun mobil ilovalar (58%), Telegram-kanallar (37,2%), naşrlar saytlari (31,6%) va ijtimoiy tarmoqlardan (31,2%) foydalaniladi. Uşbu natijalar

matbuot öquvçilari unga, asosan, uy şaroitida, keçki vaqtlarda muntazam murojaat qilişini körsatadi; axborot oliş usullari naşr formatiga qarab farqlanadi.

31. Tadqiqotga köra, matbuot öquvçilari Özbekiston yangiliklari (57,4%), xalqaro yangiliklar (43,4%), ta'lim va fan (34,3%), salomatlik va tibbiyot (27,3%), siyosat va davlat organlari faoliyati (24,8%) haqidagi materiallarga köproq qiziqadi. Erkaklarni mamlakat yangiliklari va siyosat, ayollarni esa salomatlik, ta'lim va oila mavzulari köproq qiziqtiradi. Bosma naşrlar orasida «Xalq so'zi» (38,9%), «Yangi O'zbekiston» (37,7%) va «Mahalla» (28,7%), onlayn-naşrlar orasida Kun.uz (74,7%), Daryo.uz (43,5%) va Qalampir.uz (36,8%) eng talabgir hisoblanadi. Şunday qilib, iştirokçilarning tematik afzalliklari, asosan, mamlakat va dunyo voqealari, ta'lim va soğliqni saqlaş masalalari atrofida jamlangan; ayrim mavzularga qiziqiş jins va yoşga qarab farqlanadi.
32. Tadqiqot natijalariga köra, bosma va onlayn-naşrlarni tanlaşning asosiy sabablari voqealarning xolis yoritilişi (50,4%) va e'lon qilinadigan axborotga işonç (50,1%) hisoblanadi. Respondentlar yangiliklarning tezkor e'lon qilinişi (30,3%), bayonning tuşunarli va hammabopligi (24,6%), materiallar şaxsiy qiziqişlarga mosligi (22,1%), foydali amaliy ma'lumot mavjudligi (19%) va turliça nuqtai nazarlarning taqdim etilişini (17,3%) ham qayd etgan. Demak, matbuotni tanlaşda axborotning xolisligi, işonçliligi, öz vaqtida yetkazilişi va tuşunarliligi birinçi darajali ahamiyat kasb etadi.
33. Tadqiqotga köra, öquvçilar bosma va onlayn-matbuotda dolzarb jamoatçilik muammolarini oçiq muhokama qiliş (31,8%), xolis va işonçli yangiliklar (30,1%), çuqur tahliliy maqolalar (29,1%), oddiy fuqarolar muammolari haqidagi materiallar (24,3%), jurnalistik suriştiruvlar (20,6%) va faktlarni tekşirişga oid naşrlar (20,1%) yetişmasligini köproq qayd etgan. Matbuot faoliyatini yaxşilaşning asosiy yönalişlari sifatida voqealarni yanada xolis va har tomonlama yoritiş (43,1%), aholi muammolari va ehtiyojlariga köproq e'tibor qaratiş (34,6%), yangiliklarni tezkor e'lon qiliş (31,6%) hamda turliça fikr va nuqtai nazarlarni taqdim etiş (20,3%) körsatilgan. Natijalar öquvçilarning xolis va sifatli axborotga, jamoatçilik muammolarini çuqur yoritişga va kundalik hayot bilan boğliq materiallarga ehtiyoji borligini körsatadi.

Ijtimoiy tarmoqlar

34. Tadqiqot natijalari sörov iştirokçilarining aksariyati ijtimoiy tarmoqlardan foydalanişini körsatdi (64,8%), 35,2 foizi esa ulardan foydalanmaydi. Eng yuqori uluş 18–24 yoşli yoşlar (84%) va 25–34 yoşli respondentlar (77,5%) orasida kuzatilgan. Yoş ulğayişi bilan mazkur körsatkiç pasaydi va 55 yoş hamda undan kattalar orasida 38,4 foizni taşkil etdi. Mintaqalar kesimida ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvçilari uluşi Andijon (88,1%), Xorazm (82%) va Samarqand (80,2%) viloyatlarida eng yuqori. Demak, ijtimoiy tarmoqlardan foydalaniş respondentlarning köpçiligi orasida keng tarqalgan, eng sezilarli farqlar esa yoş va yaşaş hududi bilan boğliq.
35. Sörov natijalariga köra, foydalanuvçilar orasida eng ommabop ijtimoiy tarmoq Instagram (92,7%) hisoblanadi; Facebook (28,2%) va TikTok (14,2%)dan ança kam foydalaniladi. Respondentlarning 87,2 foizi eng köp foydalanadigan ijtimoiy tarmoq sifatida Instagramni

körsatgan. Tarmoq tanlaşning asosiy sabablari qiziqarli kontent mavjudligi (49,9%), qarindoşlar va döstlar bilan muloqot (44,2%), yangiliklarni tez bilib oliş imkoniyati (40,7%) va interfeys qulayligi (30,9%) hisoblanadi. Natijalar sörovda qatnaşgan foydalanuvçilar orasida Instagram ustunligini va tarmoq tanlaşda naşrlar mazmuni, muloqot hamda tezkor axborot oliş imkoniyati hal qiluvçi ahamiyatga egaligini körsatadi.

36. Tadqiqot ijtimoiy tarmoqlardan foydalaniş çastotasi yuqori ekanini aniqladi. Foydalanuvçilarning 81,3 foizi ularga kuniga bir neça marta, yana 13,4 foizi kuniga bir marta murojaat qiladi. Odatdagi iş kuni ijtimoiy tarmoqlarda eng köp ötkaziladigan vaqt 30 daqiqadan bir soatgaça (30,4%) va bir soatdan ikki soatgaça (25,9%). Dam oliş kunlari ularda uç soat yoki undan ortiq vaqt ötkazadiganlar uluşi 8,9 foizdan 21,3 foizgaça ortdi. Ijtimoiy tarmoqlardan asosan 21:00–24:00 (50,8%) va 18:00–21:00 (40%) oraliğida, köproq uyda (75%) foydalaniladi. Demak, aksariyat foydalanuvçilar ijtimoiy tarmoqlarga har kuni bir neça marta, asosan, keçki vaqtlarda murojaat qiladi; dam oliş kunlari foydalaniş davomiyligi ortadi.

37. Tadqiqotga köra, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanişning asosiy maqsadlari qiziqtirgan yangiliklarni oliş (62,5%) va qarindoşlar hamda döstlar bilan muloqot qiliş (57,3%) hisoblanadi. Şuningdek, ulardan ta'lim oliş (38,4%), köngiloçar maqsadlarda (35,7%), foto va videolar köriş (32,3%), iş va kasbiy rivojlaniş (27,4%) uçun ham foydalaniladi. Eng keng tarqalgan foydalaniş usullari zarur axborotni maqsadli izlaş (61,9%) va yangiliklar tasmasini körişdan (51%) iborat. Aksariyat sörov iştirokçilari qarindoşlar, döstlar va tanişlar (68%), hamkasblar, kursdoşlar va sinfdoşlar (40,5%), şuningdek, yangiliklar saytlari hamda boşqa axborot resurslari akkauntlariga (23,9%) obuna bölgan. Ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlar, avvalo, axborot oliş va muloqotni davom ettiriş, şuningdek, ta'lim, köngiloçar va kasbiy maqsadlar uçun qöllanişini körsatadi.

38. Tadqiqot natijalariga köra, foydalanuvçilar ijtimoiy tarmoqlarda işonçli va tekşirilgan yangiliklar (37,5%), voqealarning xolis yoritilişi (31,6%), çuqur tahliliy materiallar (24,5%) hamda murakkab voqealar va dolzarb masalalarni sodda tilda tuşuntiriş (17,9%) yetişmasligini köproq qayd etgan. Sönggi vaqtlarda duç kelingan eng keng tarqalgan muammolar — işonçsiz yangiliklar va yolğon axborot (48,7%), firibgarlik va pul undirişga urinişlar (34%), bezor qiluvçi reklama (31,9%), şubhali havolalar va zararli fayllar (24,9%), akkauntlarni buzişga urinişlar (24,2%). Demak, tadqiqot foydalanuvçilarning işonçli va xolis axborotga ehtiyojini, şuningdek, yolğon ma'lumotlar tarqalişi, firibgarlik va raqamli xavfsizlik bilan boğliq muammolar mavjudligini körsatdi.

Telegram

39. Telegram sörov iştirokçilarining kundalik axborot hayotida sezilarli örin egallaydi. Respondentlarning aksariyati platformadan kuniga bir neça marta foydalanadi (85,3%). Foydalanişning eng köp tarqalgan vaqti — keçki soatlar: 18:00–21:00 (43,3%) va 21:00–24:00 (41,9%). Asosiy foydalaniş joyi uy bölib qolmoqda (72,0%). Umuman olganda, javoblar Telegramdan, jumladan, yangiliklar oliş va kundalik muloqot uçun muntazam foydalanilişini körsatadi.

40. Asosiy axborot qiziqişlari Özbekiston yangiliklari, ta'lim hamda jamiyat uçun ahamiyatli ma'lumotlar bilan boğliq. Respondentlarning 55,2 foizi Özbekiston yangiliklari kanallariga, 27,1 foizi xalqaro yangiliklar, 22,4 foizi maktablar, universitetlar va öquv markazlari, 21,2 foizi mahalliy hokimiyat organlari va mahalla kanallariga obuna bölgan. Kanallarni tanlaş jins va yoşga qarab farqlanadi: ayollar ta'lim, tibbiyot va oila mavzularini, erkaklar esa xalqaro yangiliklar, sport, biznes va rasmiy axborot resurslarini köproq qayd etişdi.
41. Telegramdan foydalanişda eng köp uçraydigan muammolar axborot işonçliligi, reklama va firibgarlik bilan boğliq. Iştirokçilarning 35,1 foizi işonçsiz yoki tekşirilmagan axborotlarni, 31,6 foizi bezor qiluvçi reklama va spamni, 26,9 foizi haddan taşqari köp bildirişnomalarni qayd etgan. Firibgarlik xabarlari va takliflariga 24,4 foiz, soxta internet-dökonlar va sotuvçilarga 23,2 foiz duç kelgan. Şunday qilib, iştirokçilar uçun axborot mazmunining sifati va raqamli resurslardan xavfsiz foydalaniş bilan boğliq qiyinçiliklar dolzarbdir.
42. Telegramdan foydalaniş tajribasi yoş, jins, yaşaş joyi turi va mintaqaga qarab farqlanadi. Yoşlar zararli fayllar, soxta akkauntlar va guruhlarga roziliksiz qöşib qöyiş holatlari haqida köproq xabar berişdi. Erkaklar işonçsiz axborot va ayrim raqamli xavflarni, ayollar esa guruhlarga roziliksiz qöşiliş hamda soxta internet-dökonlarni birmunça köproq qayd etişdi. Qişloq aholisi reklama spami va firibgarlik xabarlarini köproq tilga olgan. Mintaqaviy farqlar ham mavjud: masalan, işonçsiz axborot Qoraqalpoğiston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida, bezor qiluvçi reklama esa Farğona, Namangan va Samarqand viloyatlarida ayniqsa köp qayd etilgan.
43. Olingan natijalar axborotni tanqidiy qabul qiliş va raqamli xavfsizlik könikmalarini rivojlantiriş muhimligini körsatadi. Işonçsiz naşrlar, reklama spami, firibgarlik xabarlari va soxta sotuvçilar keng tarqalganini inobatga olib, dastlabki manbalarni tekşiriş, manipulyativ kontentni farqlaş, havolalarga ötiş va şaxsiy ma'lumotlarni taqdim etişda ehtiyotkor böliş dolzarb ahamiyat kasb etadi. Şu bilan birga, iştirokçilarning 11,5 foizi sanab ötilgan muammolarga duç kelmaganini, 4,1 foizi esa javob berişga qiynalganini bildirgan. Binobarin, raqamli savodxonlikni oşiriş çora-tadbirlarini eng keng tarqalgan xavflarga yönaltiriş va turli yoş hamda mintaqaviy guruhlarning tajribasidagi tafovutlarni hisobga oliş maqsadga muvofiqdir.

